

**O'ZBEKISTON BADIY AKADEMIYaSI
KAMOLIDDIN BEHZOD NOMIDAGI
MILLIY RASSOMLIK VA DIZAYN INSTITUTI
TASVIRIY SAN'AT FAKULTETI
“MINIATYuRA VA KITOB GRAFIKASI” KAFEDRASI**

“Himoyaga ruxsat etilsin”

Tasviriy san'at fakulteti dekani

_____ A.A.Yusupov

«_____» 20____ yil

5151000 – Grafika (xattotlik va miniatyura) bakalavr ta'lif yo'naliشining
kunduzgi bo'lim 010-14- guruh talabasi

Soliyev Mujohid Xabibullo O'G'Lining

“sharq xattotlik san'atida xikmatli so‘zlar”

mavzusida xattotlik asari

BITIRUV MALAKAVIY IShI

Ilmiy rahbar: “Miniatyura va kitob grafikasi”

kafedrasi o'qituvchisi

_____ Ch.A.Payziyeva

“Himoyaga tavsiya etilsin”

“Miniatyura va kitob grafikasi”

kafedrasi mudiri

_____ J.H.Rashidov

«_____» 20____ yil

Toshkent 2018

Mazkur malakaviy ishi “Miniatyura va kitob grafikasi” kafedrasining 20__yil
«____»_____dagi №____ sonli va Tasviriy san’at fakulteti Kengashining
20__yil «____»_____dagi №____ sonli majlisida muhokama qilindi va
himoya tavsiya etildi.

Taqrizchi: Muzeysunoslik kafedrasи dotsenti Muhammedova Munisa Sobirovna

Himoya 2018 yil _____ soat 9:00 da K.Behzod nomidagi Milliy rassomlik
va dizayn institutida o’tkaziladi. Institut manzili: Toshkent shahri, Mirobod
tumani, Mironshox ko‘chasi, 123-uy.

MUNDARIJA

| | |
|-------------|---|
| KIRISH..... | 4 |
|-------------|---|

ASOSIY QISM.

I BOB. SHARQ XALQLARI XATTOTLIK SAN'ATI TARIXI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI.

| | |
|--|----|
| 1.1. Xattotlik san'ati haqida umumiy ma'lumot..... | 6 |
| 1.2. Xattotlik san'ati tarixi va buguni..... | 15 |
| 1.3. Mashxur Xattotlar..... | 22 |

II BOB. BITIRUV MALAKAVIY ISHINING BAJARILISH BOSQICHLARI.

| | |
|---|----|
| 2.1. Alisher Navoiy va Abdulla Avloniy hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumotlar..... | 35 |
| 2.2. Qog'ozga badiiy naqsh berish jarayoni..... | 37 |
| 2.3. Qog'ozga allomalar qalamiga mansub hikmatli so'zlarni yozish..... | 38 |
| XULOSA..... | 40 |
| ATAMALAR..... | 43 |
| FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI..... | 47 |
| RASMLAR..... | 48 |

KIRISH

*Bitib qo'ymasa edi dono qalami
Qorong'u qolar edi Moziy olami
Yusuf Xos Xojib*

Mustaqilligimiz tufayli milliy an'ana va qadriyatlarimiz tiklanib bormoqda. Ajdodlarimizning ma'naviy me'rosini , qadimiy qo'lyozmalarni o'rganish uchun arab yozuviga asoslangan eski o'zbek yozuvini bilish hozirgi zamon talabidir.

O'tmishda o'tgan buyuk bobokalonlarimizni bizga qoldirgan ilmiy va madaniy me'roslarini biz o'rganishimiz va o'rgatishimiz ham farz, ham qarzdir. Ular juda ko'p va beba ho , aksariyatlari sobiq ittifoq davrida yurtimizdan olib chiqib ketilgan bo'lib ayni paytda Davlatimiz tomonidan Xalqaro hamjamiyat va mutasaddi tashkilotlar bilan kelishilgan holda ajdodlarimiz qalamiga mansub bo'lgan ilmiy me'roslarni nusxalarini yurtimizga olib kelinmoqda. Xorijiy mamlakatlar muzeylarida shuningdek Fransiyaning "Luvr" muzeyi, Sankpeterburgning "Ermitaj" muzeyi, Misrning "Iskandariya" kutubxonasida va boshqa joylarda saqlanayotgan yurtimizga tegishli durdoni asarlar mavjud. Ularni yurtimizga qaytarishda yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyevning sayi xarakatlari bilan amalga oshirilmoqda.

Bundan tashri UNESCO xalqaro tashkiloti ro'yxatidagi vatanimizning har bir tarixiy me'moriy obidalari va maqbaralari peshtoqidagi yozilgan Xattotlik san'ati namumalarini o'rganilib ular haqida alohida albomlar chop etilmoqda. Bulardan maqsad shuki milliy ma'naviy me'roslarimizni asrab avaylash va ularni kelajak avlodga bus butun yetkazishdir.

Malakaviy ishining dolzarbliji: Husnixat san'ati xaqida yozilgan ilmiy maqolalar va adabiyotlar asosida xattotlik kompozitsiyasi orqali yosh avlodlarga ko'rsatish maqsadida, ushbu kompazitsiya yaratildi.

Malakaviy ishining maqsad va vazifalari: Ushbu kompazitsiyani ishlashdan maqsad Husnixat san'atini namoyish etish va shu orqali ilmiy me'rosimizni o'rghanib, xattotlarning faoliyati va ijodini bitiruv malakaviy ishimda ko'rsatish maqsadim.

Bitiruv malakaviy ishning amaliy ahamiyati. Mazkur bitiruv malakaviy ishi o'tmishda o'tgan buyuk xattotlar izidan borish, qolaversa, mazkur ishdan hosil bo'ladigan amaliy tajribalarni yosh xattotlar tomonidan ijodiy faoliyatda amaliy qo'llanilishini rag'batlantirish.

Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti va predmeti:
Movarounnaxrananaviy xattotlik sanati buyuk siymolari ijodiga oid manbalar, xattotlik san'ati asarlariga asos bo'lgan materiallar.

Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati. Movarounnaxr an'anaviy xattotlik uslublarini o'rghanilib, ulardan tegishli nazariy xulosalar chiqarildi. Bu xulosalar bitiruv malakaviy ishining nazariy asoslarini belgilash imkonini beradi va ijodiy ishlar uchun asos vazifani o'tashi mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibi: Kirish, ikki bob, xulosa, adabiyotlar ro'yxati, atamalar, ilovalardan iborat.

ASOSIY QISM

I BOB. SHARQ XALQLARI XATTOTLIK SAN'ATI TARIXI

VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

1.1. Xattotlik san'ati haqida umumiy ma'lumot

O'zbek xalqi uzoq asrlik tarixida yaratib qoldirgan merosida xattotlik san'ati alohida o'rinni egallaydi. Arab istilosidan so'ng o'rta osiyo xalqlari tomonidan islom dinining qabul qilinishi munosabati bilan arab yozuvi ham kirib keladi.

O'rta asrlarda har qanday asar qo'lida ko'chirilib kitob qilingan. Nafis kitob ko'chirish katta hunar va san'at hisoblangan. Bu hunar egalari tarixda xattot nomi bilan mashhur bo'lganlar. Xattotlarning ko'chirgan kitoblari kishilarni hayajonga solib ularni zavqlantirgan. Shuning uchun ham xattotlik bilan nom chiqargan shaxslar oddiy kishilar emas, balki o'sha davrning ilm- ma'rifat va yirik madaniyat arboblari hisoblangan. Qo'lida ko'chirilgan har bir asar san'at mo'jizasi kabi nodir asar hisoblangan.

XIV- XVI asrlarda bir qancha iste'dodli- san'atkorlar, nafis kitoblarning ijodkorlari yetishib chiqdi. Muhammad bin Husayn At- Tibiy, Mir Ali Tabriziy, Xorazmiy, Sulton Ali Mashhadiy, Mir Ali Qilqalam, Munislar shular jumlasidandir. Bularidan tashqari o'rta asrlarda yashagan bir qancha olim va fozil kishilar yoshligidan hattotlik san'atini egallab, keyinchalik kotiblikda ham nom chiqarganlar. Ular faqat o'z asarlarininggina emas, balki boshqa mualliflarning asarlarini ham ko'chirganlar. Masalan, Xofiz Sheroy, Xisrov Dehlaviyning «Xamsa»sini ko'chirgan. Alisher Navoiyning mohir xattot ekanligi tarixiy manbalardan malum. Zaxiriddin Muxammad Bobur arab grafikasida turkiy xalqlarga moslab «Xatti Boburiy» deb atalgan alifbe yaratdi. Munis Xorazmiy xattotlik san'ati haqida «Savodi ta'lim» nomli risola yozdi va Alisher Navoiyning «Xamsa»sini nihoyatda nafis xat bilan ko'chirdi..

Muqimiy ham juda mayda “Nastaliq” va “Shikasta” xatlari uslubida bayoz ko'chirgan. Bularning hammasi shuni ko'rsatadiki, O'rta osiyoda nafis kitob yaratish texnikasi ixtiro etilmagan bir davrda kotiblikka talab nihoyatda kuchli

bo'lgan. Qo'l yozmalarni kitob holiga keltirishda bir nechta mutaxassislar ishtirok etganlar. Bu jarayonda qog'ozrez (qog'oz quyuvchi), xattot (kalligraf), muzaxxib (oltin suvi bilan bezak beruvchi), lavvoh (lavxa chizuvchi), musavvir (rassom) va sahhof (muqovachi) ishtirok etadi. Shu yo'sinda tayyorlangan nafis kitoblar shohlar, buyuk olimlar va shoirlar kutubxonalarida saqlanar edi.

G'ulomov M. "Boshlang'ich sinf o'quvchilarini husnixatga o'rgatish" T.1970

G'ulomov M. "Chiroyli yozuvni shakllantirish" T. 1992

O'rta Osiyo ustalari, ayniqsa, Samarqand va Buxoro ustalari qog'oz ishlashda katta shuxrat qozongan edilar. Ularning qog'ozlari pishiq va silliq edi. Xattot uchun esa ana shunday sifatli qog'ozlar kerak bo'lar edi. Qog'ozlar kustar holda turli usullarda tayyorlangan.

Xattotning asar ko'chirish qurollari: «sayyox», «qamish qalam», «mistar» (transpornat), qalamning uchini chiqarib turish uchun «kalamtarosh», qamish qalamning uchini kesish uchun yasalgan maxsus suyak plastinka «qalamqat»dan iborat bo'lgan. Qamish qalam xattotning asosiy yozuv quroli xisoblangan. Uni tayyorlash ham alohida san'at talab etilgan. Qamish qalamdan qog'ozga siyoh tommaslik uchun hamda qalamda doim yetarli darajada siyoh bo'lishi uchun siyohdon (dovot)ga to'lguncha ipak los solingan. Siyohga bo'ktirilgan ipak loslar qalamning yetarli miqdorda siyoh bilan ta'minlanishiga yordam bergan.

Xattotlar texnik vazifalardan tashqari o'z yozuv uslublarini ham ishlab chiqarishga intilganlar. Masalan, XII asrgacha xattotlar hayotida “Kufiy” xati uslubi keng o'rinn oldi. Bu uslub asosida arab yozuvining quyidagi olti xil asosiy uslublari maydonga keladi:

1. Suls xati - bu xatning to'rt baxrasi tekis, ikki baxrasi yumaloq shaklda yozilgan.
2. Nasx xati - bu xatning ixtirochisi mashxur xattot Ibn Muqla' hisoblanadi.
3. Muhaqqaq xati - bir bo'lak qismi tekis bo'lib, qolgan

bo'laklari yumaloq shaklda yoziladi.

Rayxoni y xati - muhaqqaqdan kelib chiqqan bo'lib uning ixtirochisi Ibn Bavvobdir.

4. Tavqe xati - yarim tekis yarim yumaloq chiziqdan tashkil topgan.
5. Riq'o xati - ko'pchilik harflar bir-biriga qurama qilib yoziladi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan xatlarning har biri o'z o'rniда qo'llanib kelingan. Muhaqqaq - qasida va she'rlar yozishda, Suls - ilmiy asarlar va xat yo'1-yo'riqlarida, Rayxoni y va Nasx - qissa va xabarlarda, Tavqe-buyruq va farmonlarda, Riq'o - maktublarda ishlatilgan.

Movarounnah r tarixida arab alifbosи, garchi bu o'lkalarda ungacha amal qilgan Sug'd, xatti Kufiy, Six yozuvlari umrini qisqartirgan bo'lsa-da, asrlar o'sha avlodlarimiz tomonidan yaratilgan ganjinalarning bizgacha yetib kelinishida asosiy vosita xizmatini o'tadi. Bu xat tarixini o'rganish, turli davrlarda allomalar va tarixnavislarning unga munosabati, unga asoslangan xattotlik san'atining yuksalgani bizning qadriyatlarimiz, tariximizga ham daxldor.

Arab alifbosining dastlabki namunalari haqida bizgacha juda kam ma'lumot yetib kelgan. Ayrim manbalarda uning ilk namunasi sifatida VII-VIII asrlarda xatti Ma'qaliy, keyinroq esa Kufiy shakli tilga olingan. XVI asrda yashagan kotib va adiblar Qozi Ahmad hamda Mir lmodiddin ma'lumotlariga qaraganda, kufiy xati namunasining asoschisi Muhammad Xalif ibn Abu Tolib bo'lgan. Lekin ma'lum davr otishi bilan bu xatlar namunasi talabga javob berolmay qolgan. Shu bois alifboga yangi alomatlar kiritilib, aniq talaffuz etilishi uchun harflarga ustki va ostki nuqtalar, tanvin, zamma, tashqid kabilar qo'yildi hamda alifbo belgilarining soni 28taga yetkaziladi.

1. "Қадимий
Насхи Хижозий"

بَسْمَةِ رَحْمَةٍ

2. "Насх"

اَبْحَدْ رَسُولَ صَطْعَف

3. "Насхи-
Талик"
"Форсий"

اَبْحَدْ رَسُولَ صَطْعَف وَ كَلْمَنْ

4. "Куфий"

كَلْمَنْ دَرَلْسَ صَطْعَف وَ قَنْ تَقْلَ

5. "Девоний"

لَهْ دَرَلْسَ صَطْعَف وَ كَلْمَنْ وَ مَلَى

6. "Риқъий"

اَبْحَدْ رَسُولَ صَطْعَف وَ اَبْحَدْ رَسُولَ

7. "Сулс"

اَبْثَجْ بَحْرَ شَضْظَعَ وَ فَتَأْمَنْ وَ لَمَّا

8. "Насхи
Бухорий"

اَثَحْ دَرَسَ صَطْعَف قَلْمَنْ وَ لَامْ

9. "Накшин ёзув"
алифбоси
(хатти Зухруф Ҳабибий)



X asrda mohir kotib va olim Ibn Muqla' arab alifbosining yangi olti navi - suls,tavqe',riqo', rayhoniy,nasx, muhaqqaq kabি turlarini kashf etdi.

Ayrim ma'lumotlarga qaraganda, arab alifbosidagi zarur aلومатлар ham Ibn Muqla' tomonidan kiritilgan. XIV asrda yangi uslub – ta'liq va nastaliq xatlari yuzaga keldi. Nastaliq xatining asoschisi Xoja Mir Ali Tabriziy(1330- 1404) edi. Bu xat shu qadar mashhur bo'lib ketganki, uning namunalari va xillari haqida XIX asrgacha kotiblar, adiblar tomonidan maxsus risolalar bitilgan. Nasta'liqda faqat nodir asarlarga ko'chirilib qolinmasdan, shoir va adiblarning shoh baytlari, diniy oyatlar, axloqiy-estetik fikrlar ham yoziladigan bo'lgan.

O'zbekiston mustaqillikga erishgandan so'ng ayniqsa keying uch-tort

yilda “O’zbekiston madaniyat va san’at forumi” jamg’ armasi tashabbusi bilan arab grafikasida turli xat namunalarida Samarqand, Buxoro, Xiva va boshqa shaharlardagi arxitektura yodgorliklari peshtoqlari, qabrtoshlari va osoriatiqalarida yozib qoldirilgan, ammo bugungi kungacha ko’pchiligining o’qilishi mushkul bo’lgan bitiklar o’rganilib, alohida mukammal rangli albom tarzida nashr etildi. Quvonarli tomoni shundaki, mamlakatimiz, qadriyatimiz tarixini butun dunyoga yoyish maqsadida ushbu albom bir necha chet tillarida ham chop etildi. Xat va xattotlik tarixini o’rganishda ham mazkur ko’rkam nashr katta ahamiyatga ega.

Xattotlik tarixi va amaliy ijrosiga oid Sultonali Mashhadiyning “Xattotlik haqida risola”si (XVasr), Hiraviyning “Risolai qavodi xutut” (XVasr), Muhammad Buxoriyning “Favoid ul-xutut” (XVIII-XIXasrlar) tazkira va risolalari ham xat va xattotlik tarixini o’rganishda qimmatli manba sifatida xizmat qiladi.

Temuriylar davriga kelib adabiyot va boshqa san’atlar qatori kotiblikga ham e’tibor kuchayadi. Bu davrda Xoja Mirali Tabriziydan tashqari Mashhadiy, Mavlono Simiy Nishopuriy kabi xattotlar kotiblik maktablarining asoschilari sifatida taniladilar.

O’tgan asrning ikkinchi yarmida O’zbekiston fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi sharqshunoslik institutining xodimi Abdulqodir Murodov mazkur ilm dargohidagi nodir kitoblarni ta’mirlash ishlarini olib borish bilan birga juda mohir kotib ham edi. Bu kishining qo’li bilan bülgan Nasx, Nasta’liq, Kufiy, xatti Shikasta kabi arab alifbosi namunalaridagi yozuvlar bugun ham institutning qo’lyozmalar xazinasini bezab kelmoqda. Domlaning “O’rta Osiyo xattotlik san’ati tarixidan” risolasida (“Fan”, 1971) xat va xattotlikka oid qimmatli ma’lumotlar mavjud. Risolada muallif kotiblikni maktablarga ajratadi. Bu birinchidan, o’quvchini mazkur maktablarning yetuk vakillari, ish yo’halishlari, san’ati va tarixi bilan tanishtirishga ko’maklashsa, ikkinchidan, bu maktablarning faoliyati, tarixiy ahamiyati haqidá to’g’ri tasavvur hosil etishga imkon beradi. Bundan tashqari, risolada Hirot, Buxoro, Samarqand, Xorazm,

Farg'ona va Toshkent kotiblik maktablarining 350 nafarga yaqin vakili haqida qisqa, ayrimlari haqida batafsil ma'lumotlar berilgan.

Xattotlik san'ati rivojlangan sari davr adiblari va san'at ahli ham bu sohaga katta e'tibor qarata boshlaydi. Biz quyida o'zbek mumtoz adabiyotining asoschisi Alisher Navoiyning xattotlik san'atiga munosabati haqida to'xtalib o'tmoqchimiz. Alisher Navoiy xattotlik san'atiga bag'ishlagan alohida asar yaratmagan. Ammo buyuk adibning "Mahbub ul-qulub", "Majolis ul-nafois", "Nasoyim ul-muhabbat" asarlarida va "Xamsa" dostonlarining ayrim orinlarida uning xattotlik san'ati borasidagi qarashlari bayon etilgan.

Alisher Navoiy, avvalo, kotiblik san'atini puxta egallagan, xatda yangiliklar kashf etgan, xat va xattotlikka oid risolalar bitib, bu sohada maktab yaratgan xattotlarni tilga oladi. U Sulton Ali Mashhadiy(1432- 1520)ga yuqori baho berib, shunday yozadi :"Bu kun Xurosonda va olamning aksar bilodida Nasx ta'liq xatida Qiblatul-kuttobdir va kitobot mulkining qalamravi yak qalami anga musallamdu".

Darhaqiqat,Sulton Ali haqida fikr bildirgan G'iyosiddin Xondamir, Zayniddin Vosifiy, Davlatshoh Samarqandiy,Qozi Ahmad kabi adib va tarixchilar ham uni "kotiblar qiblasi",deb tariflaganlar, yaratgan kitobot nusxalarining beqiyosligini hech kim Nasx ta'liq uslubida uning darajasiga yetolmaganini qayd etganlar. Buyuk xattot Sulton Ali yaratgan nafis qo'lyozmalar bizgacha yetib kelgan. Ular bugungi kunda jahon kutubxonalari xazinalarida saqlanmoqda.

Sulton Ali ayni paytda shoir va olim bolgan. Uning xattotlik san'atiga bag'ishlagan risolasida bu san'atning turlari, sir va yo'llari atroflicha tahlil etilgan. Sulton Alining fikricha,"Xat tozaligi ruh tozaligidir". Navoiy ta'riflagan kotiblardan yana biri Mavlono Sher Alidir. Uning istedodiga baho berib: "O'z zamonida nasx ta'liq xatin andoq bitibdikim, hech kishi taqlid qilomadi, balki mushkilki hargiz ham taqlid qilsa bo'lg'ay", deydi Navoiy va bu bilan ulug' xattotning kitobat san'atida nodir istedod egasi ekanligini ta'kidlaydi. Navoiyning Sher Aliga bunday baho berishi beziz emas. O'shadavrda yangilikka intiladigan, o'z yo'lini topgan kotiblar qatori, taqlidchi kotiblar ham bo'lgan.

Masalan, Navoiy Astrobodlik kotib Hasan Xisravshoh haqida "nasx ta'liq xatin ham Mavlono Ja'far ta'riqin taqlid qilib shirin bitir erdi", deydi.

Mavlono Simiy haqida so'z yuritargan, Navoiy uning Nishopurlik ekani, she'r, muammo, insho qatori xattotlik bilan ham shug'ullangani, bu borada shuhrat qozongani ni ta'kidlaydi. Simiyning she'r yozib, o'zi kitobat qilganini aytadi. XVI asr kotibi va adibi Qozi Ahmadning musiqaga bag'ishlangan risolasida Simiy haqida ancha ma'lumotlar bor. Risola muallifining yozishicha, Simiy xattotlik haqida asar ham bitgan. U arab alifbosining yetti turini mukammal bilgan va kitoblarni yuksak did bilan bezagan. O'sha davrda yosh kotiblar Simiyga shogird tushishni baxt deb bilganlar.


Alisher Navoiy har bir xattot faoliyati, shaxsiyati, axloqi, uning jamiyatdagi mavqeい haqida imkon boricha puxta ma'lumot beradi. Masalan, Soyiliy haqida avval " aningdek sari'ulqalam kotib o'z zamonida yo'qdur", deb xushxatligini aytsa, keyingi jumlada "har kunda besh yuz bayt osonlik bilan bitir", deb x attotning tezkorligini ta'kidlaydi. Mavlono Nomiyning noma xatini bitishga mohirligini aytsa, Shayxzoda Puroniy haqida "oz muddatda xututni andoq bitibdikim, ul fan ustodlari ottiz yilda andoq bitmaydilar", deydi va Binoiy, Yusuf Shoh, Vaysiy va Xoja Abdullo Sadrning kotiblik mahoratining o'ziga xos xususiyatlari ni ta'riflaydi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Navoiy davrida, shuningdek, undan avval va keyin ham kotiblarning ko'pchiligi faqat xat bilan shug'ullanmasdan, kitob bezash, imoratlar peshtoqiga turli xat namunalarini bitish bilan ham mashg'ul bolganlar. Imoratlardagi yozuvlar mualliflari xattotlikka oid risolalarda qayd qilingan. Masalan, Qozi Ahmad o'z risolasida turli davrda qurilgan yigirmadan ortiq imoratdagi yozuvlarning xattotlari ni eslab o'tadi. Navoiy "Majolis un-nafois" asarida Mavlono Faseh Rumiy va Mavlono Abdulvahhobni imorat kotiblari sifatida tilga oladi.

Faseh Rumiy o'z davri donishmandlaridan bolgan. U Nizomiy Ganjaviyning "Mahzan ul-asror"iga yaxshigina javob aytgan, ayni paytda Jo'gi Mirzo bog'larining binolari va qasrlaridagi barcha yozuvlarni u bigan. Mavlono Abduvahob esa, Imod qo'rg'onidagi xatlarning muallifi. Navoiy va boshqa adiblarning bunday ma'lumotlari, shubhasiz, madaniy yodgorliklar tarixini tiklashga ham yordam beradi.



Buxoro, Xonaqo Nodir Devonbegi



Navoiy xattotlarga baho berar ekan, ularning axloqiy xususiyatlariga ham to'xtalib o'tadi. Bu borada uning Abdurahmon Jomiy asarlari kotibi Sulton Ali Qoiniyga bergen bahosi diqqatga sazovordir. Chiroyli kitobat qila olishi bois, Jomiying ko'pgina asarlari Qoiniyga topshirilgan. Navoiyning yozishicha, "bir kun anga kitobat buyurilib erdi, muzd ta'in qilurda mubolag'ani ul yerga yetkurdikim, har bir baytim bir tangaga arzir, debdi. Bir ma'nidan yiroq ham emas. UI so'zlarki ul bitir, ortiqroqqa ham arzir". Ko'rind turibdiki, Navoiy ustozи Jomiy asarlarining har satrini yuksak baholash bilan birga, o'z san'atini pulga chaqqan kotib shaxsini tanqid qiladi.

O'sha zamonda mashhur adiblarning asarlarini, umuman qo'lyozmalarni kitob shakliga keltirib, xattotlik orqali ommaga yetkazish kattagina mablag'ni talab etgan. Shu bois kotiblikni tirikchilik uchun kasb qilib olganlar bo'lgan. Navoiy Mavlono Majnuniy is mli balxlik bir kotib haqida bunday yozadi: "Faqir

kishidur, kitobatgina qila olurki, vajhi maosh hosil qilg'ay". Ulug' shoir past saviyadagi kotiblar haqida ham fikr bildirgan bol'sa-da, bu toifadagi xattotlar nomini birma-bir sanab o'tmaydi, balki ularning ishidan misollar keltirib mulohazalari ni bildiradi.

Xullas, xat va xattotlik ma'naviyatimiz tarixida alohida mavqega ega qadriyatimiz sifatida behisob asarlarning bizgacha yetib kelshiga asos bo'lgan.-

Alisher Navoiyning xattotlik san'atiga oid qarashlari, bir tomonidan, xat va xattotlik san'ati tarixini o'rganishga yordam bersa, ikkinchidan, buyuk shoirning sharq fozillari faoliyatiga adabiy-estetik munosabatini namoyon etadi.

Xattotlik (arab. - husnixat yozuvchi), kalligrafiya - yozuv (xat) san'ati, kitob ko'chirish hamda me'moriy inshootlar, badiiy buyumlarning kitobalarini yaratish kasbi.

Yozuvni ng paydo bo'ishi natijasi da yuzaga keldi. Ayniqsa, arab yozuvining keng tarqalishi tufayli Xattotlikning rivojlanishi jadallahshdi. Sharqda, jumladan, O'rta Osiyoda kitob bosish vujudga kelguniga qadar qo'lyozma kitob tayyorlash, ularning nusxalarini ko'paytirish (matn ko'chirish) bilan xattotlar shug'ullangan ([Kitobat san'ati](#)) Xattotlar saroylarda, ayrim amaldorlar huzurida guruh bo'llib ishlagan. Jumladan, temuriy shahzoda Boysung'ur Mirzo (1397- 1433) Hirotda tashkil qilgan kutubxonada musavvir naqqosh va boshqa ustalar bilan bir qatorda 40 dan ortiq xattotlar qo'lyozma kitoblar tayyorlash, yaroqsiz holga kelganlarini ta'mirlash bilan mashg'ul bo'lgan.

Xattotlik san'atiga bag'ishlangan ko'plab risolalar 10 xil asosiy xat uslublari (Nasx, Kufiy, Muhaqqaq, Nasx Ta'lik, Suls, Tavqe, Devoniy, Riq'iy) mavjudligi haqida darak beradi.

O'rta Osiyoda arab yozuvlari tarqalguniga qadar turli yozuv usullari bo'lgan [masalan Sug'diy, Urxun-yenisey (qadimgi turkiy xoqon yozuvlar) va boshqa]. Qad. yozuvlardan bo'lgan Kufiy yozushi ko'pgina me'moriy va boshqa yodgorlik obidalari ning bezagida, saqlanib qolgan.

Jumladan,O'zbekiston musulmonlari diniy idorasida saqlanayotgan Usmon Qur'oni ham ana shu kufiy (qad. hijoz adabiy yozuvi)da ko'chirilgan. Qur'oni ko'chirishda nasx, buyruq va farmonlar yozishda tavqe, maktublar bitishda riq'o ishlatalig. Bulardan tashqari Tumor, G'ubor Shajariy, Tug'ro va boshqa yozuv usullari ham bo'lgan. Xvasrdan kitob ko'chirish (fors,eski o'zbek tillari)da nastaliq xati ravon bo'lgan. Xattotlik Markaziy Osiyoda Temuriylar, Shayboniyalar va so'nggi suloqlular (Ashtarkoniyalar, Mang'ilar) davrida yuksak darajada taraqqiy etgan. Amir Temur davrida Mavlono Shamsuddin Munshiy, sangtarosh va xattotlikda oldin juda mashxur bo'lgan. Alisher Navoiyning shaxsiy kutubxonasi da 11 ta yirik san'atkorlar (Sultonali Mashhadiy, Abduljamil Kotib, Darvesh Muhammad Toqiy va boshqalar) xattotlikda samarali ijod qilgan. "Xattotlar sultoni" Sultonali Mashhadiy, Mirali Tabriziy va boshqalar nasta'liq xatini san'at darajasiga ko'targan. Temuriy shahzodalar (Ibrohim ibn Shohruh, Boysung'ur Mirzo, Badiuzzamon Mirzo va boshqalar) ham xattotlikga homiylik qilish bilan birga o'zlari ham xat san'at turi bilan shug'ullanishgan.

Zahiriddin Muhammad Bobur esa yangi xat va alifbo " Xatti Boburiy" ixtirochisidir. Kitobot san'ati bilan bir qatorda binolarning kitobalari,qabrtoshlardagi bitiklar va buyumlarda xattotlik keng qo'llanilgan. Shayboniyardan Muhammad Shayboniyxon va Ubaydullaxon xattotlik bilan shaxsan o'zlari shug'ullanishgan va Nasx xatida yuksak mahorat bilan yozishgan.

XVI asr

Movarounnaxr xattotlik matabini yuzaga kelishida Mir Ali Hiraviyning hayoti va ijodi alohida o'rinn tutadi. Bosmaxona paydo bo'lguniga qadar kotib, xattotlar mehnati kitob tayyorlashda muhim o'rinn



tutgan. Bu borada Boysung'ur Mirza, Alisher Navoiy, Muhammad Rahimxon II (Feruz) va boshqalarning faoliyatlari diqqatga sazovordir.

XX asrda yirik kutubxonalarda xattotlar qo'lyozma kitoblar nusxa sini ko'paytirish bilan shug'ullandilar. Masalan, Navoiy kutubxonasi (O'zbekiston milliy kutubxonasi)da bir guruh xattotlar ishlagan. 1943 yilda O'zbekiston FA sharqshunoslik instituti tashkil topgach, malakali xattotlar (Ibodulla Odibov, Abduqodir Murodov, Abdulla Nosirov, Usmon Karimov va boshqalar) shu yerga to'plandi. Ular ko'hna qo'lyozmalarni tiklash, ko'chirish, tafsif varaqalari tuzish bilan shug'ullana boshladilar. XXasrning 80-yillariga kelib kitobat san'ati bir guruh kishilar tomonidan qayta tiklandi. Bunda xattot Habibulla Solih, Abdulla Mirsoatov, To'xtamurod Zufarov, Alisher Shomuhammedov va boshqalarning xizmatlari katta. Jumladan, Habibulla Solih Mushafi Usmon Qur'onining asl nusxasidan pergamentga 3 marta nusxa ko'chirib tayyorlagan (bir nusxasi Malayziyaning Kualalumpur shahrida pergamentga ko'chirib tayyorlagan yana bir nusxasi Tashkent islam universitetida), Katta Langar Qur'onidan (SanktPeterburg va O'zbekistondagi nusxalari asosida) teriga ko'chirib nusxa tayyorlagan Habibullo Solih 1998 yilda Istanbulda o'tkazilgan Xalqaro xattotlar bellashuvida "Devoniy" xat uslubi bo'yicha kuchli o'nlikdan o'rinn oldi; 1999 yilda Xattotlikda yangi tarz (naqshin bezak yozuvining alifbosi ni kashf kilib bu sohada yangilik) yaratgani uchun Lohurdagi Xalqaro xattotlar bellashuvida "Parvin raqam" ("Sharq yulduzi") unvoniga sazovor bo'ldi. Abdulaziz Mansurov, Islom Mamatov, Salimjon Badalboyev, G'afurjon Haqberdiyev va boshqa bugungi eng mashxur xattotlardir. . Xattotlik hozirgi kunda Tashkent sharqshunaslik instituti, Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy Rassomlik va dizayn institutida talabalarga saboq berilib kelinmoqda.

2017 yilning 1-3-fevral kunlari poytaxtimizdagi Yoshlar jod saroyida ilk marotaba "Hikmatlar olami" I xattotlik festivali o'tkazildi. Festival O'zbekiston Respublikasi xalq ustalari, hunarmandlari va musavvirlari

"Hunarmand" uyushmasi tomonidan tashkiletmoqda.

O'zA muxbiri Toshkent davlat sharqshunoslik institutining arab filologiyasi kafedrasi katta o'qituvchisi Nosirxo'ja Orifxo'jayev bilan xattotlik san'ati va uning tarixi, o'tkazilayotgan mazkur festivalning milliy madaniyatimiz va qadriyatlarimizni keng targ'ib qilishdagi ahamiyati haqida suhbatlashti.

- Xattotlik san'ati festivalining o'tkazilishi tarixiy voqeadir. Chunki shu vaqtga qadar bunday festival bo'lman. Mamlakat miqyosida birinchi bor tashkil etilayotgan ushbu tadbir Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning xattotlik san'atini rivojlantirish va uning an'anaviyligini ta'minlashga qaratilayotgan alohida e'tibori tufaylidir. Tadbir bu yo'nalishdagi milliy qadriyatlarimizni tiklash bilan birga, keljakda iste'dodli yosh xattotlar yetishib chiqishida muhim qadam bo'ldi.

Xattotlik arab tilida "husnixat yozuvchi" degan ma'noni bildirib, yozuv (xat) san'ati, kitob ko'chirish hamda me'moriy inshootlar, badiiy buyumlar kitobatini

yarat ish kasbini anglatadi. Sharq xalqlarining ko'p asrlik tarixiy merosida xattotlik va kitobat san'ati abhida o'rinn egallaydi.

Arab yozuvining 100 dan ortiq turi mavjud. 28 harfdan iborat bo'lgan arab alfbosining dastlabki shakli xatti Ma'qaliy" bo'lib, tik chiziqlar bilan ifodalangan. Ammo uzoq istemolda bo'lib, shuhrat qozona olmagan. VII asrdan boshlab uning o'rnini arab yozuvining eng qadimysi va mashhuri hisoblangan "Xatti Kuf iy• egallaydi So'ogra xatti ma'qaliy va kufiy xati asosida arab yozuvining san'atkorona yaratilgan 8 xili asosiy uslubi maydonga kelgan. Bularni yuqorida ta'kidlab o'tgan edik.

Bu xatlar ichida hozirgi kunda eng ko'p qo'llaniladigani Nasx xati bo'lib, 22 arab davlatida, Eron Islom Respublikasida shu xatdan foydalilanadi. Qur'oni karim hozirgi vaqtida asosan Nasx xatida chop etiladi. Riqo' yozushi arab yozuvining qo'lyozma shaklida o'z ifodasini topgan.

Arab yozuvining muhim xususiyatlaridan yana biri – u stenografik yozuv

xususiyatiga ega. Odatda arab yozuv ida Qur'onikarim va boshlang'ich sinflar uchun qo'llanmalar va lug'atlardagina qisqa unli harflar (harakatlar) yoziladi. Qolgan holatlarda ular yozuvda aks etmaydi.

- Sharqda xattotlarning xatlari ma'no ifodasidan tashqari, kishini hayajonga solib, unga estetik zavq bergan. Har bir xatga san'at mo'jizasi sifatida qaralgan.

- Sharqda, jumladan, O'rta Osiyoda kitob bosish vujudga kelguniga qadar qo'lyozma kitob tayyorlash, ularning nusxalarini ko'paytirish (matnko'chirish) bilan xattotlar shug'ullangan. Xattotlar saroylarda, ayrin amaldorlar huzurida guruh bo'lib ishlagan. Xattotlik san'atiga bag'ishlangan ko'plab risolalar yozilgan.

SHARQ XATTOTLIK SAN'ATI JOZIBASI

1991 i Uzbekiston o'z mustaqilligini e'lon qildi. Natijada ijtimoiy xayotning barcha jabhalarida tub o'zgarishlar va yangilanishlar ro'y berdi. Buning bir qirrasi milliy qadriyatlarning tiklanishi bo'ldi. Biroq mamlakat ijtimoiy va madaniy hayotining tarixiy taraqqiyotini, birinchi navbatda, qadimiy manbalarni, milliy tarix va ma'naviyatga oid qo'lyozmalarni o'rganmasdan tasavvur qilish mumkin emas. Bu yo'nalishda uzoq yillar tabarruk nomi va nishoni pinhon tutilgan ulug'ajdodlarimizning ilmiy-ijodiy, ma'naviy-ma'rifiy merosini xalqqa qaytarish yo'lida o'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning tashabbuslari, ayniqsa, muhim ahamiyat kasb etdi. Prezident Islom Karimov "Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch" kitoblarida ta'kid laganlaridek: "Hayotimizning barcha sohalarida amalga oshirib kelayotgan keng ko'lamli islohotlarimizning samaradorligi, avvalo, xalq ma'naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosimizning chuqur o'rganilishi, an'ana va urf odatlarimizning saqlanishi, madaniyat va san'at, fan va ta'lim rivoji, eng muhimi jamiyat tafakkurining o'zgarishi va yuksalishi bilan uzviy bog'liqdir"

Zero Prezidentimiz Islom Karimov qayd etganganlaridek: "Millatimiz tarixi

haqidagi haqiqat yurtimizning fidoyi, o‘z yo‘lidan, maslagidan, so‘zidan qaytmaydigan farzandlariga ochilishi lozim. Bilishimiz shart bo‘lgan sahifalarni qunt bilan varaqlash — hammamiz uchun ham farz, ham qarz”.

O‘zbek olimlarining islom davri madaniy merosini o‘rganish va targ‘ib qilishdagi hissasiga alohida ta’rif berishga hech bir ehtiyoj yo‘q. Mustaqillikning qisqa davri mobaynida o‘zlarida siyosiy bilim va axloqiy sha’n, diniy tafakkur va qomusiy ilmlarni mujassam etgan ulug‘ mutafakkirlar, buyuk davlat arboblari nomi qayta tiklandi. Ulug‘ ajdodlarimiz — Imom Buxoriy, Imom Termizi, Xoja Ahmad Yassaviy, Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Farg‘oniy, Xoja Bahouddin Naqshband, Amir Temur, Ulug‘bek, Navoiy, Bobur va boshqalar milliy madaniyatimiz rivojiga ulkan hissa qo‘shib, xalqimizning to‘la ma’nodagi faxriga aylandi. Ularning nomlari va jahon tamadduni rivojiga qo‘sghan ulkan hissasini bugungi kunda butun dunyo biladi. Mustaqillik yillarida ko‘plab masjid, Madrasalar qayta ta’mirlandi, islom ma’naviy haqiqatini anglashga intilayotganlar uchun yangi o‘quv muassasalari ochildi, islom san’ati va hunarmandchilik an’analari tiklandi. Bular orasida xattotlik va miniatyura san’atining ham munosib o‘rni bor.

Xattotlik va kitobat san’ati mashriq zamin aholining uzoq asrlik madaniytarixiy merosida muhim mavqega ega. Markaziy Osiyo xalqi tomonidan islom diynining qabul qilinishi arab yozuvining ham kirib kelishiga sabab bo‘ldi. Natijada u VII asrdan bu xalq uchun ilm-fan va davlat ishlarida rasmiy yozuv vazifasini o’tadi.

O‘rta Osiyo ikki daryo oralig‘ida joylashgan hudud — O‘zbekistonning xozirgi tub zamini — o‘rta asrlarda arabcha "Movarounnahr", ya’ni "daryoning narigi tomoni, daryo orti" deb atala boshladи. Yurtimiz hududlariga islom kirib kelgandan so‘ng arab yozushi mahalliy hukmdorlar nomi zarb etilgan tangalarda asosiy yozuv sifatida qo‘llana boshladи. VIII asr oxiri — IX asr boshlarida xattotlik san’atidan Movarounnahr badiiy hunarmanchiliga oid, jumladan, sopol, mis, bronzadan yasalgan buyumlarni bezashda foydalanilgan. Shuningdek, bu san’at musulmon me’morchiligi yodgorliklari — masjid, madrasa, maqbaralar bezagi tarkibiga ham

kirib kela boshladi. Arab alifbosidagi epigrafik yozuvlarni tosh buyumlarda, yog‘och o‘ymakorligida, gilamlarda, so‘zanalarda, darveshlar to‘nida, ko‘p sonli tumorlarda va boshqa zargarlik san’ati buyumlarida uchratish mumkin. Ammo xattotlik ko‘proq kitobat san’ati doirasida gullab yashnadi.

Mashhur xattotlar xatlarining chiroyli va jozibador bo‘lishi uchun arab harflarining har biriga oro berishga, husn kiritishga va ularni go‘zallashtirishga harakat qilgan.

Arab yozuvining 36 shakli(xati)dan har biri alohida uslub va tab’iy yo‘nalishi bilan bir-biridan farqlanadi. Bu esa unga betakrorlik va o‘ziga xoslik bag‘ishlaydi. Sharq xattotligi o‘quvchini hayajonga soladi va unda go‘zal tuyg‘ularni uyg‘otadi. O’rta asrlarda hali kitob chop etish ixtiro etilmagan davrda har qanday asar qo‘lda ko‘chirilib, kitobat qilingan. Kitob ko‘chirish ilm darajasidagi hunar hisoblanib, bu ish bilan shug‘ullangan kishilar xattotlar va kotiblar nomi bilan mashhur bo‘lgan. Ularning har biri o‘z zamonasining ma’rifatli madaniyat arbobi sanalgan. Tabiiyki, zarrinqalam xattotlar yozgan har qanday xat san’at mo’jizasi kabi o‘lmas asar hisoblangan.

Ibn Sinoning "Tib qonunlari" kitobida ta’kid lanishicha, xunuk xat bilan yozilgan matn kishining ko‘ziga katta zarar yetkazadi. Shuning uchun husnixat bilan bitilgan kitoblar nihoyatda qadrlangan, e’zozlangan hamda tabarruk sanalgan.

Dunyodagi barcha muqaddas kitoblar, qomusiy, tarixiy, ilmiy, adabiy, ma’rifiy asar va to‘plamlar mana shu xattot(kalligraf)larning sermashaqqat mehnatlari evaziga bizgacha yetib kelgan, nodir merosimiz asrlar osha avloddan- avlodga o‘tib, o‘lмаган. Ilgari maktablarda bolalarga Qur’on, "Xaftiyak", "Chog kitob”dan, Hofiz, Navoiy, Bedil asarlaridan va So‘fi Allohyorning "Maslak ul-muttaqin" kabi mumtoz ma’rifiy kitoblaridan ta’lim berilib, o‘qish jarayonida ular savodli o‘quvchilarga ko‘chirtirilgan va shu yo‘l bilan keyingi avlod qo‘llanmalar bilan ta’minlangan. Zotan, Markaziy Osiyo xalqining taxminan 15 asrlik ilmiy-adabiy, tarixiy-qomusiy merosi bizning davrimizgacha, asosan, qo‘lyozma shaklida yetib kelgan.

Qo‘lyozmalarni kitob holiga keltirish esa murakkab va mashaqqatli hamda o’ta

mas'uliyatli jarayon bo'lib, unda bir necha mutaxassis ishtirok etgan. Ulardan birinchi darajadagilari — qog'ozrez (qog'oz tayyorlovchi), xattot (xat yozuvchi), zahhob (zarhal beruvchi), naqqosh (naqsh chizuvchi), lavvoh (sarlavha va jadvalarni ziynatlovchi), posh (tilla suvini yulduz kabi sochuvchi), musavvir (qo'lyozma- ga miniatyuralar chizuvchi rassom) va sahhof (muqovasoz).

Tabiiyki, bir necha mohir ustalarning ishtirokida vujudga kelgan qo'lyozma- lar beba ho mo'jiza darajasiga ko'tarilgan va o'z zamonasidagi eng mo'tabar shaxslarga — podshohlar, davlat va din arboblari, buyuk olimlar va shoirlarga, umuman, san'atsevarlarga tuhfa etilgan. XV-XIX asrlardagi Buxoro, Xiva va Farg'ona saroy kutubxonalari, ko'pincha eng qimmatbaho badiiy qo'lyozmalar hisobiga boyigan. Bir qator qo'lyozmalar davlat boshliqlari hamda san'at homiylarining tashabbusi bilan dunyoga kelgan va yuqori baholangan. Saroy kutubxonasiga qabul qilingan har bir qo'lyozmaga oltin va javohir singari xazina boyligi sifatida qaralgan.

Husnixat san'atining asosiy uslublari. 28 harfdan iborat bo'lgan arab alif-bosining dastlabki shakli ma'qaliy xatidir. Arab xatinining "ma'qaliy" deyilishi, Ma'qal ibn Sinonga nisbat berilganligini bildiradi. Ma'qaliy xati ko'fiy xatidan oldingi qadimi yozuvlardan bo'lib, u harflarning to'g'ri chiziqligi bilan ko'fiy xatidan ajralib turadi. Ikki dunyo saodati bo'lmish Qur'oni karim ham mana shu xatda bitilgan. Hazrati Usmon raziyallohu anhu boshchiligida Qur'on kitobat qilindi va bir necha nusxada ko'chirtirildi. U zot Qur'oni mana shu sanoqli asl nusxalardan ko'chiritini buyurdilar. Shulardan bir nusxasi Ko'fa shahriga yuborilgan. Keyinchalik Iroq, Xuroson, o'rta Osiyoda mana shu Ko'fa shahriga yuborilgan Qur'ondan nusxa ko'chirganlari uchun u "Ko'fiy Qur'on" za Ko'fiy xati" deb atala boshladи va shunday qilib, "ko'fiy" atamasi xat olamiga kirib qoldi. Shuningdek, ummaviylar zamonida, ya'ni VII asr oxirida tangalar ko'fiy xatida zarb qilina boshladи. Keyinchalik ko'fiy xatiga nuqtalar, e'roblar (zamma, fatha, kasra) qo'yildi.

Tafsir, hadis, fiqh, aqoid, tarix ilmlarining shiddat bilan rivojlanishi xat yozishning ham tez, ravon va qulay bo'lishini taqozo etar edi. Ko'fiy xati esa

ancha murakkab bo‘lgani uchun zamon talablariga to‘la javob bera olmasdi.

Ilohiy ilhom orqali ko‘fiy xati asosida paydo bo‘lgan arab xatining birinchi ixtirochisi bag‘dodlik Abu Ali ibn Muqla (vaf. 338/950 y.) hisoblanadi. Ibn Muqla ma’qaliy (ko‘fiy) xati asosida arab yozuvining yetti asosiy turini ixtiro etgan. Bu kishidan keyin Shayx Jamoliddin Yoqut Jazoiriy (277-397/891-1007 y.) alayhir-rahma val-mag‘fira Ibn Muqla ta’li- moti asosida muhaqqaq va mashhur olti xatni mukammallashtiradi. Shuningdek, u nasx xatining ixtirochilaridan biridir. Manbalarda qayd qilinishicha, Shayx Jamoliddin Yoqut Qur’oni karimni yoqut xatida forsiy tarjimasi bilan birga ming adad ko‘chirgan. Keyinchalik Ibn Bavvob (vaf. mil.1022 y.) ham xat us lubining go‘zalligini mukammallashtiradi va 36 xat turidan 17 xilini ixtiro qiladi. Buyuk xattot Yoqut (XIII asr) va boshqa ulug‘ xattotlar arab yozuviga sayqal berib, ularning yanada mukammal, jozibador bo‘lishiga o‘zlarining beba ho hissalarini qo‘shganlar, xatdagi uslublarni oxiriga yetkazib, takomillashtirganlar.

Islom olamida arab xatining quyidagi 7 turi keng qo‘llanadi:

1. Muhaqqaq. Bu xatni ko‘proq qismi tekis, tikka chiziqli harflar uzun yoziлади. O’ramlarning uchi ingichka bo‘lib tugaydi, qolgan bo‘laklari dumaloq shakl-Dadir. Shuning uchun bu xatning ma’qaliy va ko‘fiy xatlarga o‘xshashligi — boshqa xatlarga nisbatan ko‘proq. Shu sababdan Ibn Muqla bu xatga muhaqqaq deb nom berdi. Boshqa turdagи xatlardan birinchi deb bildi.
2. Rayhoni. Ko‘fiydan kelib chiqqan bu xatning yozilishi shakl jihatidan rayhonga o‘xshash bo‘lib, aylanma shaklli harflar suls xatiga qaraganda yotiqroq va cho’ziqroq yoziladi. Rayhoni xatning ixtirochisi Ibn Bavvob.
3. Suls. Bir narsaning uchdan bir hissasi yoki uchinchi hissasi, demakdir. Suls xati deyilishiga sabab shuki, bunda qalamning uchinchi hissasi ishlataladi yoki suls xati ta’limida qalamning uchdan bir hissasi ko‘proq ishga solinadi. Mazkur yozuv uslubida "alif", "dol", "lom" harflari gajakli bo‘ladi. Boshlanishda tikka chiziqlarning uch qismi changaksimon boshlanib, oxiri nafis burama bilan tugaydi. Ibn Bavvob birinchi bo‘lib suls xati harflarining shaklini nuqta o‘lchovlariga asoslagan va suls xatining grafik asoslarini ixtiro etgan.

4. Nasx. Bu xat xattotlar tomonidan keng qo'llanilgan. "Nasx" xatining lug'aviy ma'nosi — "o'chirish, bekor qilish" demak. Bu xat turi yuzaga chiqib, shuxrat qozongandan keyin boshqa xatlarning barchasi mansux qilingan, ya'ni ishlatalishdan qoldirilgan. Nasx xati tez va ravon yozilgani, ko'zga go'zal va bejirim tashlangani uchun ham u matbaalarda chop etiladigan kitoblarda asosiy yozuv vazifasini O'tagan. Ixtirochisi mashhur san'atkor xattot Ibn Muqla hisoblanadi.

Ilmiy adabiyot va qo'lyozmalarda ko'p uchraydigan g'ubor xati nasx xatining mayda qalamda yozilishidir. Matnlar maxsus raqamda juda mayda qilib yozilgani uchun g'ubor deb aytilgan. G'ubor xatining ixtirochisi, — Said Qosim.

5. Tavqi'. Xatning yarmi tekis, yarmi yumaloqroq chiziqdan tashkil toptan bu yozuv turi ma'qaliy va ko'fiy xatlarga o'xshaydi. "Tavqi'" deyilishiga sabab shuki, ilgari qozilar qozixona hujjalarning boshiga yoziladigan so'zlarni shu xat bilan bitganlar. Qozilar va hokimlar hujjalarni tavqi' xati bilan imzolaganlar. (Idora va mahkamalarda farmonlarga, maktublarga, qo'lyozmalarga tavqi' uslubida imzo qo'yilgan.)

6. Riqo'. Bu "ruq'a" so'zining ko'pligi bo'lib, qog'oz parchalari, maktublar demakdir. Riqo' xatida harflar bir-biriga qurama qilib yoziladi. Bu yozuv turi usmoniyalar hukmronligi davrida katta shuhrat qozongan va keng tarqalgan. ko'pincha, kishilarga yuboriladigan nomalar shu xat bilan yozilgan. Tavqi' va riqo' xatlarining ixtirochisi ma'lum emas.

7. Ta'liq. "Ta'liq" *osilib turuvchi, ilingan* degan ma'nolarni anglatadi. Bu xat aslida riqo' bo'lgan. Uni har kim turli shakllarga aylantirib, undan bir ravish ixtiyor qilgan. XV asrda paydo bo'lgan bu yozuv turidan, asosan, rasmiy va shaxsiy xatlar yozishda, hujjalarni bitishda foydalanganlar. Mazkur yozuv harflari yuqorida chapga kengroq holda yoziladi. Xoja Tojiddin Sulaymon — shu uslubni ixtiro qilgan kishilar jumlasidan.

Bu kishi ixtiro qilgan ta'liq xati riqo' xatining shoxchasidir. Bu xat insho va maktublarga tegishli bo'lib, munshiy(insho yozuvchi)lar uni cho'zib yozganlar.

Ayrim olimlar ta'liq xatining ixtirochisi Abul Oliy nomli shaxs deb ko'rsatganlar. Abul Oliy ixtiro etgan ta'liq xatining grafik asoslari ko'fiy xatidan

kelib chiqqan bo‘lib, bu xat forsiy matnlarni yozish uchun ixtiro qilingan.

Yuqoridagi xat turlari xattotlar tilida "Al-Xutut as-sab'a" ("Yetti xat") deb yuritiladi. Xattotman degan har bir inson shu xatlarni bilishi zarur bo‘lgan.

Tafsir, hadis, fiqh, ilohiyot, adabiyot, tarix ilmlarining shiddat bilan rivojlanishi xat yozishning ham tez, ravon va qulay bo‘lishini taqozo etar edi. Ko‘fiy xati esa ancha murakkab bo‘lgani uchun zamon talablariga javob bera olmasdi. Shu sababdan zikr qilingan xatlar ixtiro qilindi.

Xatlarning har biri, yuqorida eslatib o‘tilganidek, maxsus o‘rinlarda qo‘llanib kelgan: ko‘fiy qasida va she’rlar yozishda, rayhoniy va nasx qissa va xabarlarda, suls ilmiy asarlar va xat yo‘l-yo‘riqlarida, tavqi’ buyruq va farmonlarda, riqo’ maktublarda ishlatilgan. Bu yetti asosiy uslubning har biri ingichka (xafiy) va yo‘g‘on (jaliy) qalamlarda yozilishi natijasida jami o‘n to‘rt xil xatni tashkil qilgan.

Nasta’liq xati "nasx" va "ta’liq" xatlarining birikuvidan tashkil top gan. Nasx va ta’liq uslublari asosida nasta’liq xatini Mir Ali Tabriziy (Mir Ali Hiraviyning ustozlari) ixtiro qilganlar. o‘zlarini Tabriziyning shogirdi deb hisoblagan, "qibalat ul-kuttob"("kotiblar peshvosi") Sulton Ali Mashhadiy (vaf. milodiy 1520 y.) esa nasta’liq xati uslubini yuksak darajaga ko‘targan mashhur xattotlardan bo’lganlar. U kishining davomchilari Mir Ali Hiraviy mazkur xatni mukammal qoidaga kiritib, she’riy bir risola tuzganlar.

Qit’a, dubaytiy (to‘rtlik), ruboiy, g‘azal, nasihatomuz she’rlar, asosan, jaliy qalamda to‘rt qator yoki undan ko‘proq qilib yozilgan. Mazkur xatlar, albatta, me’yoriy jihatdan bir-biriga mos hamda to‘rt qator bo‘lsa, oltita uchburchak atrofida bo‘lishi — shart. Harflar o‘lchami nuqtalar asosida belgilangan. Shuningdek, harflar — "alif", "jim" "yo" va boshqalar bir-biriga, albatta, o‘xshashi va bir tekis bo‘lishi qat’iy talab qilingan. Mana shu talablar bilan yozilgan qit’a yuqori darajali xattot tomonidan yozilgan beba ho san’at namunasi, deb tan olingan. Qit’a atroflari bir necha xil gullar, naqshlar, abri bahor qog‘ozida tilla bilan bezatilib, muraqqa (albom) holida saqlangan yoki shishali chorcho‘p(ramka)larda mehmonxona devorlariga ilib qo‘yilgan. Bu qit’alar bir

necha yuz tilla-kumush narxida baholangan. Ba'zi qit'alarining old yoki orqa tomoni miniatyura, atirgul, rangli naqshlar bilan bezatilgan. Shuni ham ta'kidlash kerakki, mazkur muraqqadagi qit'alarining aksariyati tasavvufiy mazmunga ega bo'lib, tabiiyki, ularda majoz qo'llanilgan. Zero, majoz shoirning asl maqsadini ifodalovchi she'riy san'at turidir. Bu haqda hazrat Alisher Navoiy "Xamsat ul-mu tahayyirin" asarlarida shunday ta'kidlaydilar: "Al- majozu qantarat ul-haqiqa", ya'ni majoz — haqiqat ko'prigidir. Shunga binoan, mumtoz asarlarda qo'llanilgan may — ishq va ibodat ramzi, mayxona — masjid, jom — yurak, soqiy — pir, yor — Alloh, piri mug'on — Muhammad alayhissalom...

Yozuv va kitob ko'chirishga e'tiborning ortishi tufayli Xuroson va Movaroun-nahr hududida bir necha xattotlik maktablari vujudga keldi. Ular:

- 1) Hirot xattotlik maktabi;
- 2) Buxoro xattotlik maktabi;
- 3) Xorazm xattotlik maktabi;
- 4) Farg'ona (Qo'qon) xattotlik maktabi;
- 5) Samarqand xattotlik maktabi;
- 6) Toshkent xattotlik maktabi.

Hind xattotlik maktabi esa, asosan, Buxoro, Samarqand, Hirot va Tabriz xattotlik maktabi ta'sirida taraqqiy etgan.

Xirot xattotlik maktabi. O'rta Osiyoda xattotlik san'atining keng taraqqiyoti Amir Temur va temuriylar davridan boshlanadi. Husnixat san'ati Xuroson poytaxtidan Hirotda rivojlanib, u yerda Sulton Ali Mashhadiy boshliq yirik xattotlik maktabi vujudga keladi. Shoh Muhammad Kotib, Abdurahim Hiraviy shu maktab vakillaridirlar.

Buxoro xattotlik maktabi. Bu maktab XVI-XVII asrlarda taraqqiyotning yangi bosqichlariga ko'tariladi. Bu yerda xattotlik san'ati tez rivojlanib, mashhur xattotlar yetishib chiqadi. Bu davrda Buxoroda madaniy hayot ma'lum darajada taraqqiyot pillapoyasiga ko'tariladi.

Xirot xattotlari va musavvirlaridan bir qismi Buxoroga keladi. Buxoroning

o‘ziga xos bo‘lgan yangicha kitobat va husnixat san’ati rivoj topadi. XVI-XVII asrlarda yashab ijod etgan Buxoro xattotlari o‘ziga xos uslub — maktab yaratadilar. Tarix sahifalarida Mirali Hiraviy, Fathobodiy, Mirzo Ismatulloh Munshiy, Sodiq Munshiy Jondoriy, Mir Ma’sum Buxoriy, Avaz Badaliy Buxoriy, Hoji Yodgor, Domlo Bobobek, Abdulmajid Maxdum Buxoriy, Subhonquli, Muhammad Rizo Namadiy, Mirzo Mavlon Buxoriy, Abdulloh Savdo, Abdulvahhobxo‘ja, Abdulqodirxo‘ja, Mirzo Muhammadjon, Mirzo Isxoq kabi zarrinqalam sohiblari — mohir xattotlarning nomlari tez-tez uchrashi buning yorqin dalilidir. O‘sha davrda Buxoroda ko‘fiy, suls, g‘ubor, nasx, nasta’liq xatlari juda rivojlanadi.

XV1-XVII asrlarda Mir Ubayd Buxoriy (vaf. milodiy 1601 y.) tomonidan Buxoroda nasx xati asosida yangi xat ravishi "Nasxi Buxoriy" ("Mir ubaydiy") xati ixtiro qilinadi. Bu xat nasx xatidan ko‘ra kattaroq (yirikroq) bo‘lib, u jozibadorligi va mo‘“jizakorligi bilan har qanday kishini ham o‘ziga maftun etadi.

Manbalarda aytilishicha, kunlarning birida Mir Ubayd Buxoriy Muhammad (s. a. v.)ni tushlarida ko‘radilar. Payg‘ambar (s. a. v.) Mir Ubaydga qalam hadya etadilar. Uyg‘onganlarida esa hadya etilgan qalam qo‘llarida bo‘ladi. o‘sha qalam bilan yoza boshlaganlarida mo‘jiza ro‘y berib, yangi xat uslubi — "Nasxi Buxoriy"("Mir ubaydiy") vujudga keladi va bu xat "Nasxi Buxoriy" deb atala boshlaydi. U xat tez orada o‘rtta Osiyo, Afg‘oniston shimolida keng tarqalib, mazkur xatda Qur’onni kitobat qilish boshlanadi. Qori Mir Fayz Buxoriy, Qori Abdulvohid Buxoriy, Qori Ahmad Buxoriy, Mirzo Hoshim Xo‘jandiy, Muhammad Ersoriylar "Nasxi Buxoriy" xatida Qur’on, "Daloil ul-xayrot", "Farzi ayn" singari kitoblarni, xutbalarni kitobat qilganlar. Keyinchalik ular chop qilinib (toshbosmada), xalq orasida keng ommalashgan hamda sevib o‘qila boshlagan.

Nasta’liq xati Buxoroda keng yoyilib, kitoblar bitildi. Xususan, XVI asr boshlarida Buxoroda yashagan Mavlono Mir Ali Hiraviy Fathobodiy ko‘p shogird yetishtiradilar. (Qabrlari Buxorodagi "Shayx ul-olam" mozorida. Ularning davomchilari — Mirzo Yodgor, Mirzo Fathulloh Munshiy, Mirzo Ismatulloh

Munshiy, Domlo Bobobek va boshqalar.

Keyinchalik mazkur xattotlik an'analarini davom ettirgan Domlo Bobobek (tah. milodiy 1741-1861 y.) ham Buxoroda bu sohada o'ziga xos maktab yaratib, ko'plab shogird tayyorlaganlar. Nasta'liq xatini o'rgatishda tabiat go'zalliklaridan ilhomlanib, ularni xat ta'limiga kiritganlar va shu tariqa xatning jozibadorligini ta'minlaganlar. Buxorodagi Devonbegi xonaqohining yuqoridagi hujrasida dars bergenlar. Xar bir harf, uning yozilishini tabiat go'zalliklariga qiyoslab, (harflarni) turli ism bilan atab shogirdlariga ta'lim bergenlar. Masalan, (ayn) harfiga "fam ul-asad" (sher og'iz), "fam us-su'bon" (ilon og'iz), "azzun namla" (chumoli chimidisi); (mim) harfiga esa "ajdar mim", "xurmoysi mim", "g'uncha mim" "mimi tojdor" va hokazo deb nom bergenlar. Bobobek hazratlari, xattotlikdan tashqari, adres to'qish bilan ham shug'ullanganlar. Yozgan xatlariga ko'pincha "Ishtibar", ya'ni soqqachi deb imzo qo'yganlar. Hatto, qalam uchini qo'llari bilan ham sindirib yozganlar. Shogirdlar bundan hayratlanib: "Domlaning karomatlari bor", — deb ta'kidlashgan. Umrlarining oxirida ko'zları ojiz bo'lishiga qaramay, xat mashq qilishni tark etmaganlar, tog'orada qo'llari bilan loy qilib, loy ustini andava bilan shuvab, shogirdlariga barmoqlari bilan xat mashqini ko'rsatar edilar. Bir kuni shogirdlaridan biri hazillashib: "Ustoz, ko'zingiz ojiz bo'lsa ham, xat mashq qilasizmi?" — deganida: "Ko'r kotib ustod bo'ldi xat mashqida, mashq qil, mashq qil, ko'r bo'lguncha mashq qil- da", — deb javob bergen ekanlar.

Rivoyat qilinishicha, bir kuni Buxoro hukmdori bir yigitni arzimagan gunohi uchun qamab qo'yadi va: "Qaysi bir mirza shu yigitni zindondan ozod qilish uchun ariza yozib bersa, o'sha mirzaning qo'lini kesaman", — deb amr etadi. Mahbusning onaizori mirzalar oldiga borib, ariza yozib berishlarini o'tinib so'rasa ham, ular qo'rqqanlaridan rad qilishgan. Shunda haligi volida Domlo Bobobek hazratlarining huzurlariga iltijo qilib keladi. Mirzalar mohir xattot Domlo Bobobek hazratlariga: "Yozmang, rad javobini bering, bo'lmasa, amir qo'lingizni chopib tashlaydi", — deyishadi. Bobobek hazratlari: "Shu onaizor uchun, mayli, amir mening qo'limni kesib tashlasin" — deydilar-da, o'sha zahotiyoyq ariza yozib berdilar. Xat podshohning qo'liga tushganida: "Bu xat Domlo Bobobek

hazratlariniki- ku?" — deb, xatni zavqu maroq ila o'qiy boshlaydi. Ariza esa shunday satrlar bilan boshlangan edi:

*Saharda onaizorning nolasidan o'zingni xalos et,
Onaizor faryodi arshni kuydirgusidur.*

BU she'rdan hamda go'zal yozilgan maktubdan ta'sirlangan amir yigitni zindondan ozod etadi.

Said Umar, Mirzo Sarimsoqbek Jizzaxiy, Mullo Subhonberdi ("Domloj Jim" laqabi bilan mashhur) — Domlo Bobobekning sevimli shogirdlaridan.

Xorazm xattotlik maktabi. Xorazm xattotlik san'ati faqat XVIII asrning boshlaridagina mustaqil maktab sifatida shakllangan. Ayniqsa, XIX asrga kelganda Muhammad Rahim I va Muhammad Rahim II zamonasida Xorazm xattotlik maktabi taraqqiy etib, xattotlar bilan bir qatorda, u yerda kitobat ishlari ham rivoj topadi. Nasta'liq xati yetakchi o'rinni egallaydi. Bu yerda husnixat taraqqiyoti ma'lum darajada toshbosma orqali kitob nashr qilish bilan ham bog'liq bo'lgan.

Farg'ona (Qo'qon) xattotlik maktabi. XVIII asrning ikkinchi yarmi va XIX asrda Qo'qon xonligida madaniy hayot, san'at va adabiyot ravnaq topdi. Farg'ona shaharlarida qo'qonlik mashhur xattot Muhammad Sharif Dabir boshliq juda KO'P xattotlar yetishadi. Muhammad Alixon, Muhammad Yodgor Xo'qandiy, Abdullatif Hisoriylar mazkur matabning shakllanishi va taraqqiyotiga o'zlarining munosib hissalarini qo'shganlar. Qo'qon xattotlik matabida ham nasta'liq xati yetakchi o'rinni egallagan. Bu matabning boshqa xattotlik maktablaridan farqli jihatni shundaki, bu yerda badiiy asarlarni kitobat kilishda shikastiy xati ham keng iste'molda bo'lgan.

Samarqand xattotlik maktabi. Samarqand xattotlik maktabi ham ko'plab zarrinqalam xattotlarni yetkazgan bo'lib, Muhammad Murod Samarqandiy, Mir Rajab Samarqandiy va tarix sahifalarida XVII asrlarda nomlari muhrlanib qolgan boshqa xattotlar shular jumlasidandir.

Toshkent xattotlik maktabi. XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, ma'lum iqtisodiy va siyosiy sabablarga ko'ra, Toshkent ham madaniy markazga aylana

boshlaydi. Maktab, maorif, san'at va adabiyotning rivoj topishi bu yerda ham O'ziga xos yo'lida husnixat bilan shug'ullanuvchi san'atkor xattotlarning yetishib chiqishiga zamin hozirlaydi. Toshkent xattotlari O'rta Osiyoning Shohmurod Kotib boshliq oltinchi husnixat maktabini tashkil qiladi. Toshkentda ham husnixat taraqqiyoti ma'lum darajala toshbosma orqali kitob nashr qilish bilan bog'liq bo'lgan. Sanab o'tilganlar orasida badiiy jihatdan yuksak taraqqiyot bosqichiga ko'tarila olganlari Hirot, Buxoro va qisman Farg'ona (QO'QON) husnixat mакtablaridir.

Kitobat usuli. Ma'lumki, xattotning matn ko'chirishi uchun eng avval yaxshi, sifatli qog'oz talab qilingan. Qog'oz dastlab Xitoyda ishlab chiqarilgan. Keyinchalik Samarqand va Buxoro o'sha zamonning eng yirik qog'oz ishlab chiqaruvchi markazlariga aylangan. Qog'oz ikki turli bo'lib, birinchisi faqat ipak los-lardan (hech qanday paxta tolasi qo'shilmay) tayyorlangan o'ta pishiq, juda chiroyli, yaxshi ohor berilgan, toza va silliqlikda, tengsiz qog'ozdir. Uni "qog'oz:: abreshimiy" deb atardilar. Ikkinchisi yarim ipakli bo'lib, u ipak va kanon tolasining taxminan ellikka ellik foiz aralashmasidan tayyorlangan. Bu qog'oz pishiq, salmoqli va yaxshi ohorli bo'lib, u "qog'ozinimkatoniy" deb atalgan.

Shuningdek, turli qo'lyozmalarni ko'chirish uchun maxsus "haftrang" deb atalgan qog'ozlar va muqovaning ichki tomoniga qo'yish uchun "abri bahor" qog'ozlari ham tayyorlangan.

Qog'oz ustasi(qog'ozrez)ning ishi bitgach, xattot matnni ko'chirishga kiri-shardi. Xattotning qurollari "siyoh", "qora qamish qalam", "mistar" (transparant), qalamning uchini chiqarish uchun "qalamtarosh", qalamning uchini kesish uchun yasalgan suyak — "qalamqati'dan iborat bo'lib, bularning hammasi maxsus qalamdonda turadi. Qalamdon qog'oz bo'tqasiga gips aralashtirilib yasalgan bo'lib, ko'pincha, rasm va badiiy bezaklar bilan bezatilardi yoki misdan ishlanib, unga kumushdan qadama naqsh solinardi. Qalamdonda siyohni bir miqdorda saqlab turish uchun dovotga solinadigan "ipaklos", turlicha kesilgan qamish qalamlar va boshqalar turar edi. Qamish qalam xattotning asosiy yozuv quroli bo'lib, xat, asosan, Hindistonidan olib kelingan maxsus qora qamishlarda yozilgan.

Sababi: u juda qattiq, yozishga chidamli bo‘lgan. Katta (jaliy) qalam qayrag‘och va tol yog‘ochlaridan tayyorlangan.



Qamish qalam tayyorlashda eng nozik va muhim jarayon qalam kesishdir. Utog'ri kesilmaydi, balki qiyshiq kesiladi, ya'ni "unsiy" "vahshiy"dan bir oz uzunrok bo'ladi. Qamishning uchi mukammal tayyorlanishi shart.

Qamish qalamdan qog'ozga siyoh tommasligi hamda qalamda doim yetarli daraja- da siyoh bo'lishi uchun siyohdon(dovot)ga to'lguncha ipaklos solinadi. Siyohdonga to'lgan loslar qalamni yetarli miqdorda siyoh bilan ta'minlashga, kotibning bekamuko'st ishlashiga yordam beradi.

Xattot qo‘lyozmani ko‘chirishdan oldin oldida turgan yaltiroq varaqdagi satrlar qancha bo‘lishi kerakligini va ular qanday, ya’ni to‘g‘ri chiziq bilanmi, yo parallel chiziqlar bilanmi yoki qiyshiq (qiya) chiziqlar bilan berilishi kerakligini nafosat talablariga muvofiq mulohaza yuritib, taxminiy belgilab oladi. Undan keyin qog‘oz(varaq)ning hajmiga loyiq yoki shu ish uchun tayyorlangan mistar (transparant) tanlaydi. Mistar qalin karton qog‘ozdan yoki bir necha varaq pishiq

tikilgan qog‘ozlardan iborat bo‘lib, unga yo‘g‘on ipak iplar tortib qo‘yiladi. Bu iplar bir-biridan ma’lum va teng masofada parallel qatorlarda yoki qiya tortilib turadi. Xattot bunday mistarni qog‘ozning ostiga qo‘yib, qo‘li bilan bosadi. Natijada iplarning qog‘ozga (varaqqa) izi tushib, bu izlar esa maxsus chiziq o‘rnida xizmat qiladi, mana shu chiziq (yo‘l) bo‘yicha matnning satrlari ko‘chiriladi.



Xat mashqi mohir xattot tomonidan shogirdlar uchun besh bosqichga bo‘lib o‘rgatilgan: mufradot (birlik harflar), murakkabot (ikkita harfni qo‘shib yozish), qitaot (dubaytiy, masnaviy, ruboilarni yirik, ya’ni jaliy qalamda yozish), munshaot (xafiy qalamda xat yozish, insho yozish), kitobat (xafiy va jaliy qalamlarda kitob ko‘chirish)dan iborat edi. Har bir bosqich ustoz tomonidan shogirdlarning iste’dodiga qarab qayta-qayta takrorlangan.

O‘sha zamonning har bir xattoti qo‘lyozmani mohirona ko‘chirish uchun ikki xil

xatni egallashi kerak edi: biri — oddiy mayda (xafiy) xat, ikkinchisi — yirik (jaliy) xat. U uch tur xatda: oyat-hadislarni "nasx" oddiy matnlarni "nasta'liq", bob va sarlavhalarni "SULS" xati bilan chiroysi qilib ko'chirishi lozim edi.

Xattot qo'lyozmani batamom yoki uning ma'lum bir qismini tugatgach, qo'lyozma lavvo h o'tadi. San'atkor lavvo xattotning ko'chirgan barcha matnlarini rangdor chiziqli jadval ichiga, hoshiyani esa, odatda, qizil yoki havo rang chiziq ichiga oladi. Agar hoshiya rangdor bo'lishi kerak bo'lsa, u holda lavvo bo'yalgan qog'ozning matn uchun ajratilgan qismini kesib olib, keyin mohirlik bilan rangli hoshiyaning keng ramkasiga yopishtiradi. Qog'ozdagi



yopishtirilgan joylar lavvo tomonidan ustakorona rangli kashtalar (chiziqlar) bilan kashtalanadi. Ish shunday mahorat bilan san'atkorona bajarilardiki, chiniq magan ko'z, albatta, bu yamoqni sezmasdi.

Lavvo ba'zan oddiy naydan yasalgan maxsus asbob vositasida qo'lyozmalarining satrlari orasiga zarhal, qizil yoki lojuvardlardan afshon beradi. Keyin lavvo qo'lyozma(asar) ning bosh qismiga suyuq oltin bo'yoqlar bilan katta va kichik naqshlar chizadi. Bu naqshlar, odatda, "unvon" yoki "sarlavha" deb ataladi.

Ayrim bezakli qo'lyozmalar matni boshlanishi oldidan bitta yoki ikkita frontispis (kitobning asosiy mazmunini tasvirlaydigan va zarvaraq, ya'ni titul varagi yonida har ikki sahifaga joylashtirilgan yaxlit bir rasm) har ikki varaqqa yaxlit joylashadi. Frontispis jimjimador qilinadi, turli oltin bo'yoqlar bilan ko'proq o'simlik uslubida yoki geometrik xarakterdagi naqshlarga ega bo'ladi. Agar

qo‘lyozma asar bir necha bo‘lakdan iborat bo‘lsa, u holda har bir asar (qism) boshida frontispis ishlanib, uning o‘rtasidagi alohida kartochkalarga oltin rang bilan asar nomi, muallifi yoziladi.

Lavvohning ishi bitgach, qo‘lyozma bezatilishi uchun rassom (miniatyurist) qo‘lidan o‘tadi. Rassom xattot tomonidan maxsus bo‘sh qoldirilgan sahifa(yoki yarim sahifa o‘rinlar)ni syujetli rasmlar bilan bezaydi. Rassom dastlab nozik pero (sarqalam) bilan rasmning badiiy tuzilish negizini chizadi. So‘ngra ingichka mo‘yqalam (cho‘tka) yordamida bo‘yoq bilan bo‘yab, lozim bo‘lganda oltin va kumush suvlari bilan bezaydi.

O‘sha zamon musavvirlari lozim bo‘lgan hamma bo‘yoqlarni o‘z qo‘llari bilan tayyorlaganlar. Ular oltin va kumushni suyuq holatga keltirib, deyarli pastaga o‘xhash holatda ishlatar edilar. Rassomlarning mo‘yqalami (cho‘tkasi) qunduz junidan qilinib, pero(sarqalam)ga kaptar qanotidan qo‘yildi.

XV-XVI asrlardagi musavvirlar suratlarni nihoyatda nozik did bilan ishlagan. Natijada ularning asarlari g‘oyatda jonli chiqqan. Bu Sharqning Rafaeli hisoblangan buyuk iste’dod egasi Kamoliddin Behzod asarlarida yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Tasviriylar san’atga katta qiziqish xalqilgiz tabiatida azal-azaldan mavjud bo‘lgan. Qadim Afrosiyob va Varaxsha devorlariga chizitgan rang-barang tasvirlar fikrimizning yorqin dalilidir. Sharqda musavvirlikning o‘ziga xos ilmiy-me’yoriy talablari — o’lchamlari ishlab chiqilgan, Shuningdek, miniatyura san’ati namunalari ham bizning ko‘p asrlik noyob tarixiy-me’moriy obidalarimizga jilo berib turibdi. Samarqanddagi Sherdor hamda Buxorodagi Nodir Devonbegi va Abdulazizzon madrasalarining peshtoqlaridaga go‘zal va nafis tasvirlar — shular jumlasidan.

Ulug‘ shoirlarimizdan Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy va boshqa yirik mutafakkirlarimizning mumtoz asarlari, kitob zarvaraqlarini, unvonlarini bezashda ham miniatyuralardan keng foydalaniilgan.

Xullas, qo‘lyozma xattot, lavvoh, rassom mehnatidan so‘ng, nihoyat, sahhof (muqovasoz) qo‘liga o‘tadi. Muqova bilan bog‘liq barcha ishlarni muqovasoz

bajaradi. Muqova karton qog‘oz qiyqindilaridan yoki bir necha varaqlarni yelimlab yopishtirish yo‘li bilan tayyorlangan. Qog‘ozlar bo‘tqasimon suyuqlikda maxsus shaklga ega bo‘lgan qolip larga qo‘yib qotirilgan. Tayyor bo‘lgan qog‘oz “mag‘ziyi recta”, ya’ni “quyma karton” deb nomlangan. Yelimlab yopishtirilgan karton “mag‘ziyi soxta” deyiladi.

Qo‘lyozmaning muqova bilan tikiladigan joyi alohida tayyorlanardi. Jilt uchun eng yaxshi saxtiyon teri ishlanardi. U Hamadondan olib kelingan- Qopqoqni charmga yopishtirgach, muqova qurimasdanoq nam holicha unga jimirla- ma naqsh solinardi. Agar oltin bilan bezash kerak bo‘lsa, u holda tuxum oqi bilan achchiqtosh eritmasi surkalgan qopqoq ustidagi charm yuzasi sof oltin yaproqchali bilan qoplanardi. Keyin shunday bir qopqoqqa yoki “Haftjo‘sh” deb ataluvchi butun bir shtampovka taxtasiga yoki maxsus bo‘rttirib rasm ishlangan bronza taxtaga (lavha) qo‘yilib, u muqova barobarida yoki bir oz kattaroq yo‘g‘on marmar taxtacha bilan qoplanadi. So‘ngra taxtani muqova qopqog‘i bilan maxsus cho‘yan yoki konussimon usti tekis va qisqa dastali mis to‘qmoq bilan aylantirilar, shu bilan birga, ichki tomondan ham qarama-qarshisiga kuchli ravishda burar edilar. Natijada nam muqovaning qopqog‘ida tegishli chiroyli bo‘rtma rasmlar hosil bo‘lar edi. Shundan keyin ikkinchi qopqoq ham shu usulda ishlanardi. Qopqoqning ichki yuzasi ham shunday qilinardi yoki tekis rangli karton puxta va boy bo‘rtma naqshlar bilan bezatilardi.

Ilk bor nashr qilinayotgan ushbu ilmiy-tadqiqiy muraqqa xattotlik va musavvirlilik namunalaridan tanlangan bo‘lib, unda ulug‘ ajdodlarimizning va ularning an’analalarini davom ettirayotgan bugungi iste’dodli yosh xattotlarning, gapining indallosini aytganda, Vatanimizdan yetishib chiqqan ko‘plab zarrinqalam sohiblarining VII—XXI asrlardagi xat namunalari jamlangan. Mazkur mo‘tabar qo‘lyozmalar, noyob xat namunalari yillar davomida zahmat bilan to‘plangan.

Abdulg‘afur RAZZOQ BUXORIY

II BOB. BITIRUV MALAKAVIY ISHINING BAJARILISH BOSQICHLARI.

2.1. Alisher Navoiy va Abdulla Avloniy hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumotlar.

Alisher Navoiy 1441-yil 9-fevralda Amir Temurning o'g'li Shohruh Mirzo shohligi davrida Hirotda tug'ilgan. Zamondoshlari uning haqida ko'pincha "Nizomiddin Mir Alisher" deb yozadilar. "Nizomiddin" din-diyonat nizomi degan ma'noni bildirib, donishmand mansab egalariga beriladigan sifat, "mir" _amir demakdir. Uning otasi G'iyosiddin Muhammad (uni G'iyosiddin kichkina ham der edilar) temuriylar saroyining amaldorlaridan, xonadonning ishonchli kishilaridan edi. Onasi amirzoda Shayh Abusaid Changning qizi bo'lgan, ismi ma'lum emas. Alisherning bobosi Temurning o'g'li Umarshayx bilan emikdosh (Ko'kaldosh) bo'lgan ekan.

Alisher saroy muhitida o'sgani uchun alohida tarbiya va nazorat ostida bo'lgan. Kichiklik chog'ida she'riyat va musiqaga ishqil tushgan. U doimo olimu fozillar davrasida bo'lgan. Uning zehni va iqtidori haqidagi gaplar esa el orasida tarqalib bordi.

1447-yilda Shohruh Mirzo vafot etib, temuriy shahzodalar o'rtasida taxt uchun kurash boshlandi. Hirot notinch bo'lib qoladi. ALisher oilasi vaqtincha Iroqqa yo'l oladi. Yo'lda Taft shahrida Alisher zamonasining mashxur tarixchisi, "Zafarnoma" ning muallifi Sharafiddin Ali Yazdiy bilan uchrashadi.

Alisher Navoiy 1462-1472-yillarda muhrdor, 1472-1476-yillarda vazir bo'lib ishlaydi. Husayn Bayqaro uni o'ziga g'oyat yaqin tutadi. Har bir narsada u bilan maslahatlashar va buni nihoyatta qadrlar edi.

Alisher Navoiy she'rni va shoirlikni hamma narsadan ustun tutar edi. Va'zirlik mansabida turib ham she'r yozishni to'xtatmadni. Shoh Husayn Bayqaroning o'zi unga rahnamolik qildi. Ulug' shoirning ilk she'riy devonini muxlislari tuzgan bo'lsalar, birinchi devoni " Badoye ul-bidoya" ("Badiiylik ibtidosi")sinii 1472-

1476-yillarda shohning amr va istagiga ko'ra o'zi kitob qildi. 1485-1486-yillarda ikkinchi devon

“Navodir unnihoya”(“Nihoyasiz Nodirliklar”) maydonga keldi. Alisher Navoiy 1481-1482-yillarda “Vaqfiya” asarini yozadi. Vaqf deb biror hayrli ishning sarfu xarajatini ta'min qilmoq uchun ajratilgan yer yoki mulkga aytildi.

Abdulla Avloniy hayoti va ijodi.

Atoqli ma'rifatparvar, iste'dodli shoir va pedagok Abdulla Avloniy 1878-yil 12-iyulda Toshkentda kosib oilasida dunyoga kelgan va eski maktabda ta'lim olgan. U tarjmai holida shunday deb yozgan: “ 12 yoshimda O'qchi mahallasidagi madrasada ta'lim ola boshladim. 13 yoshimdan boshlab yoz kunlari mardikor ishlab, oilamga yordam qilib, qish kunlari o'qir edim. 14 yoshimdan boshlab, o'sha zamonga muvofiq har xil sherlar yoza boshladim. Bu zamonlarda “Tarjimon” gazetasini o'qib, zamondan xabardor bo'ldim”. Avloniyning madrasani bitirib, maktabdorlik bilan shug'ullandi. O'qish va o'qitish usuliga islohotlar kiritib, yangi tipdagi maktablar tashkil etdi va yosh pedagog-o'qituvchilarga zamonaviy bilimlar berish, Sharq va G'arb tillarini o'rgatish kabi muhim ta'lib tarbiyaviy ishlarni olib bordi.

Abdulla Avloniy maktab o'quvchilari uchun “Birinchi muallim” va “Ikkinchi muallim” (1912), “Tarix”, “Turkiy Guliston yohud axloq” (1913) kabi zamonasi uchun muhim hodisa bo'lgan darsliklarni yozgan. 1895-yili ijodiy faoliyati boshlangan Avloniy “Qobil”, “Shuhrat”, “Hijron”, “Avloniy”, “Surayyo”, “Abulfayz”, “Indamas” taxalluslari bilan she'r, hikoya, felyeton va dramatic asarlar yaratgan. Shoir o'z asarlarida zamonasidagi qoloqlikni, johillikni tanqid qiladi va kishilarni bilimga ma'rifatga chaqiradi.

2.2 Qog'ozga badiiy naqsh berish jarayoni

Bitiruv malakaviy ishi besh qismga bolinadi. Bularni ishslash uchun quyidagi ashyolardan foydalanildi: Qog'oz, qalam, planshet (50x70sm), tempera, suv bo'yog'i, tilla rang.

Birinchi, vatman qog'ozini 50x70sqli planshetga tortish va oq qog'ozni ustidan qora choy bilan gruntlash (qog'ozni gruntlash oq qog'ozni rangini to'qlashtiradi), bir piyolaga bir qoshiq choy olib ustidan qaynagan suv quyib, keyin choyni sovutib elakdan o'tkaziladi.(Elakdan o'tkazilganda choyni quyqundilardan tozalanadi). Elakdan o'tgan choyni yirik va yumchoq mo'yqalam bilan planshetga tortilgan qog'oz ustidan bir xil qilib surkaladi. Nihoyat qog'ozning tunsi to'qlashadi.

Ikkinci, Gruntlangan qog'ozlarning har biriga naqshlar tanlab tushurish, naqshlarni chizish jarayonida kompozitsiyaning umumiy ko'rinishi ya'ni besh qismdan iborat ekanligini hisobga olgan holda markazga doira shaklidagi "Shamsiya" naqshini komponovka qilindi. Ikki chetiga to'g'ri to'rtburchak shaklidagi ikkita bir xil ko'rinishdagi naqshlarni joylashtirildi. So'ng burchak shaklidagi naqsh ikkila kompozitsiyaga joylashtirildi.

Uchinchi, Kompozitsiyalarga rang berish jarayoni: rang berish jarayonida naqshlarning har biriga ijodiy yondashib issiq va sovuq ranglarni o'z joyida ishlatildi. Masalan: markaziy naqshda ya'ni "Shamsiya" naqshini fon qismida asosan ultramarine rangini ustunligini to'ramiz . va bundan tashqari naqshning tashqi novda qismida tilla rangidan, ichki novda qismida to'q fonga qarama qarshi ravishda och o'xra ranglaridan foydalanildi. Naqshning gul va kurtak qismlarida och ranglardan: oxra, olov rang, och pushti ranglar ishlatildi. Bundantashqari naqshning ichki qismida fon sifatida qora, jigar rang va och ko'k ranglari foydalanildi.

Naqshlar Eron islimiy naqsh qo'llanma kitobidan foydalanib bajarildi. "Shamsiya" naqshining ikki chetidagi tog'ri tortburchak shaklidagi naqshlar asosan novdalari tilla rangda ishlangan, ularning to'rt tomonidagi muhr naqsh uslibidan keng foydalanilgan. Muhrli naqsh uslubi fon qismlarida asosan ultramarine rangi

qo'llanilgan. Ularning gul va kurtaklarida pushti rang, olovrang, och ko'k rang o'xra ranglaridan foydalanilgan.

To'rtinchi, Kompozitsiyani ranglab va turlab bo'lingandan keyin ularni siyoqalam qilinadi. Siyoqalam qilish jarayonida ingichka "kalanok" maxsus mo'yqalami bilan jigar rangli tempera bilan ozroq sariq rangli tempera aralashmasi bilan siyoqalam qilinadi. Keyinchalik shu tayyorlangan rang bilan kompozitsiyalar ichki va tashqi qismidagi tilla rangli sidirg'a chiziqlar ustidan zanjir shaklidagi chiziqlar birlashmasini to'qiladi.

2.3. Qog'ozga allomalar qalamiga mansub hikmatli so'zlarni yozish

Avvalo, qog'ozga hikmatli so'zlarni yozishdan avval eng yaxshi so'zlarni kitoblardan izlandi va axiyri topildi. Har bir kompozitsiyaga alohida hikmatli so'zlar bitildi.

Birinchisi: O'ng tomondan birinchi rasmga Alisher Navoiyning ibratli baytidan biri shuki "*Adab o'rgan, ilm hosil qil. Ahli ma'nog'a o'zni vosil qil*" deb yozilgan. Bu hikmatli so'zning mazmuni shundan iboratki, Avvalo yaxshi kishilardan odob axloqni o'rganilsa ilmga qalbimizda ehtiyoj paydo bo'ladi va ilm ahliga ya'ni olimu ulamolar davrasida bo'lish, ularga ezunglik qilish bilan nazariga tushish haqidadir.

Ikkinchisi: O'ng tomondan ikkinchi rasmda Alisher Navoiyning ibratli baytidan yana biri shuki "*Er kishida bo'lsa erlikdan nishon, hech bir odamg'a ravo ko'rmag'ay ziyon*" deb yozilgan. Bu so'zdan shunday ma'no kelib chiqadiki, er kishi ya'ni mard inson shunday insonki o'ziga ravo ko'rman gan narsani o'zgaga ham ravo ko'rmaydi, o'ziga nima yaxshilikni istasa yaxshiliklarni o'zgalar bilan birqalikda baham ko'radi.

Uchinchisi: Markazdagi ya’ni o’rtadagi rasmida Muhammad (sallallohu alayhi vasallam) hadisi shariflaridan olingan bo’lib, unda shunday bitilgan

“*Har ish niyatga ko’ra amalga oshadi*” deb yozilgan. Buni ma’nosи shuki har bir qilinadigan ishimi niyatimizga bog’liq ekan. Agar yaxshi va holis niyat bilan ish boshlasak va harakat qilsak, yomon gumonlarni o’ylamasak, bu niyatimiz albatta amalga oshishi mumkin.

To’rtinchisi: Bu rasm o’ng tomondan to’rtinchi ish bo’lib, bu hikmatli so’z Abdulla Avloniy qalamiga mansubdir.

Unda “*Topar ilm ila odam o’g’li kamol, yeturmas kamola jamol ila mol*” deb yozilgan bo’lib, inson ilm bilan komillikga erishadi va shu ilmining ortidan jamolga va risqu nasibaga ega bo’ladi degan ma’noni bildiradi.

Beshinchisi: Bu o’ng tomondan eng oxirgisidir. Bu so’z ham Alisher Navoiyning so’zlaridir. So’zlari shundan iboratki “*Odamiy ersang demagil odamiy, onikim yo’q xalq g’amidin g’ami*” deb bitilgan. Bu hikmatli so’zlarni ma’nolari juda chuqurdir. Ya’ni haqiqiy inson o’zini g’amidan boshqalarni g’amini ustun ko’radi, manashu haqiqiy inson deb baho beradi hazrati Alisher Navoiy.

XULOSA

Manbaalarni o'rganish jarayonida kamina shunday xulosaga keldimki sharq Xattotligida bitilgan qo'lyozmalar va tarixiy me'moriy obidalarimizda bitilgan ilmiy-tarixiy, ham badiiy estetik ham ilohiy qo'lyozmalarni o'qib o'rganish jarayonida o'tmishda o'tgan buyuk bobokalonlarimizning nechog'liq yuksak ilmga ega ekanliklarini va xattotlarning nechog'liq mohir hushnavis ekanliklarini ko'rib turib lol qolmasdan iloj yo'q. ular umumjahon madaniyat xazinasi bilan noyob san'at asarlari sifatida munosib o'rinni egallagan. Ushbu san'atning tarkibiy ismi sharq xalqlarining mushtarak badiiy me'rosi va iftixori bo'lmish sharq xattotlik san'ati ko'p yillar mobaynida asosan sharqshunoslar, san'atshunoslar, manbaashunoslari, filologlar va tarixchialrning diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Shuningdek Sharq xattotlik san'atini yetuk badiiy estetik tomonlari va ilmiy asoslangan proporsional hajmlarini qoidaviy yozish uslubini uni ustozlardan yoki mustaqil o'rguvchilarga mo'ljallangan kitoblardan ko'chirib yozish orqali xat savodini chiqarish mumkin. Keyinchalik mufradot va murakkabot darajalarini tugallab bo'lgandan so'ng biror bir qisqa bayt yoki so'zlardan namunalarni ko'chirish orqali arabcha yozish imlosini qoidaviy yozishni shakillantirsa bo'ladi. Yana bir masalaga yechim shulki, o'rganuvchilarga xattotlik haqida nazariy ma'lumotlarni ham birgalikda berib borish maqsadga muvofikdir. Masalan xattotlik san'atining jahon madaniyatida tutgan o'rni, xalqlarning o'zligini anglashda xattotlik san'atining o'rni beqiyosligini, sharq xattotlik san'ati maktablari va markazlarini, ularda mavjud bo'lgan umumiylilik va tafovutlarning sabablari, bu maktablarning zabardast va'killari hayotlari

va ijod yo'llari haqida ma'lumotga ega bo'ladilar. Shuningdek sharq xattotlik san'atini o'rganish jarayonida ular turli xil xattotlar uslubini o'rganib o'zlarini mahoratlarini yetuk xattotlar ketidan ergashib, keljakda ularning ishini davom ettiradilar. Oldingi xattotlar yozuv ulublarini boshqalari bilan solishtirib, u yerdagi yozuvlardagi xar bir harflarning tuzilishini va proporsiyalarini diqqat bilan kuzatish paytida ularni amaliyotda qo'llab xattotlikda o'z uslublarini topishga harakat qiladilar. Shuningdek badiiy didlarini ham chiroyli yozish bilan birga o'stirib boriladi. Husnixat kitoblari va manbaalarini shunday o'rganiladiki, avval milliy kitoblarimizdan keyin xorijiy kitoblarni o'rganilsa maqsadga muvofiq bo'ladi, chunki agar birinchi o'zimizning an'anaviy milliy metodikalarimiz bilan bir tanishib chiqilsa kelgusilarini tushunish osonroq kechadi.

Xattotlikda asosan nafaqat chiroyli yozish emas, balki bo'lajak xattotning tarbiyasi ya'ni xulq-odobi, madaniyati bo'lishi ham e'tiborlidir.

Xattotlik san'ati insonlarni ilmni sevishga, kitobni azizlashga, mehnatni qadriga yetishni hissiyotini singdirib boradi. Haqiqiy xattot faqatgina chiroyli yozibgina qolmay ahli ilm ham bo'lishi kerak. Bu hunarni o'rganish, keljakda yaxshi Kotib bo'lishni dilini bir chetiga tugib yurgan havaskor xattotlar va o'rganuvchlar chin dildan harakat qilsalar albatta o'ylagam niyatlariga yetadilar

АТАМАЛАР

| Ўзбек тили | Рус тили | Инглиз тили | Изоҳ |
|-----------------|-----------------|-------------------|---|
| Пигмент | Пигмент | Pigment | рангли куқун бўлиб, у хар қандай бўёқнинг асосий таркибий қисми ҳисобланади. Пигментларга бўлган бадиий талаб қуидагилар: рангларнинг тиниқлиги, узоқ вақт сақланиши, ёруғлик таъсирида оқармаслиги, боғловчилар билан яхши аралашиши, у ёки бу сатхни қоплаш хусусиятининг бўлиши. |
| Акварель | Акварель | Watercolor | энг қадимги бўёқлардан бири бўлиб, унинг маъноси “ранг ва сув”дир. Сувда тез ва яхши эриши, мўйқаламга яхши ёпишиши, қофоз, оқ картон каби сатхларни текис бўяши, доғ хосил қилмаслиги, қофоз сатхидан енгил ювилиши, суркалмаслиги ва ёрилмаслиги. |
| Гуашь | Гуашь | Gouache | сувли бўёқлар туркумига кирувчи бўлиб, италян тилидан таржима қилганда “хўл – сувли” маъносини билдиради. Гуашънинг акварелга нисбатан фарқи таркибида оқ рангнинг мавжудлиги. Шу сабабли бўёқ билан бўялган ранг куриганда хўл холатига нисбатан бир оз оқариш хусусиятини кузатишмиз мумкин |
| Темпера | Темпера | Tempera | сувда эрувчи бўёқлардан биридир. Унинг ўзига хослиги “қайтмаслик” хусусияти, яъникуриган бўёқсув (нам)даюмшаб, эримайди. Бунга сабаб, унинг таркибини |

| | | | |
|---------------------|-------------------------|---------------------|--|
| | | | кучли боғловчилар ташкил қылганлигидан. |
| Грунт | Грунтовка | Priming | тасвир ишланадиган сатхни тайёрлаш, яъни мато (сатх) ва бўёқ ўртасидаги боғловчи қисмдир. |
| Мато | Холст | Canvas | рангтасвир ишиш учун энг қулай анъанавий ашёдир. |
| Тош қофоз | Попе-маше | Popey-mache | бир-бiri устидан кўплаб қават-қават қилиб ёпиширилиб, маълум қалинлик ҳосил қилиб ишлов берилган у ёки бу кўринишдаги енгил, пухта унсурни тасаввур қиласиз. |
| Мармар қофоз | Мраморная бумага | Marble paper | қўлёзма китобларнинг муқова ички қисмлари, шеърлар ёзилган варақлар ҳамда варақ хошия қисмларини безашда ишлатилган. |
| Китоб | Книга | Book | ахборотларни, ғоя, образ ва билимларни сақлаш ҳамда тарқатиш, ижтимоий-сиёсий, илмий, эстетик қарашларни шакллантириш воситаси; билимлар тарғиботи ва тарбия қуроли; бадиий-илмий асар, ижтимоий адабиёт |
| Форзац | Форзац | Endpaper | муқованинг китоб сахифалари билан бириктирилган қисми |
| Сарварақ | Титульный лист | Title page | китобнинг бош қисмida бўлади. Унда муаллиф исми-шарифи, китобнинг номи, нашр этилаётган жойи, илии, нашриёт номи ва бошқалар ёзилади. |
| Жилд | Суперобложка | Book jacket | муқовани сақлаш ва безак сифатида муқовага кийгизилади. |
| Зарварақ | Шмуститул | Half-title | йирик сарлавҳалар алоҳида сахифада берилади |
| Мумли | Свеча | Candle | Асалари мумидан боғловчи |

| | | | |
|-------------------|-------------------|--------------------|--|
| <i>темпера</i> | <i>темпера</i> | <i>tempera</i> | сифатида фойдаланиб тайёрланган темпера |
| Композиция | Композиция | Composition | лотича сўз бўлиб “componere”-йифмоқ, қурмоқ-деган маънони бидириб, тасвирий санъатда жуда кўп ишлатиладиган атама ҳисобланади. Композиция турли шакл ва қисмларни бирлаштирувчи, яхлитловчи, маълум бир ғояларни аниқ тасвирловчи жараёндир. |
| Форэскиз | Форэскиз | Sketch | for – инглизчадан “тақалган” эскиз “учун” деган маънони билдириб, тасвирланаётган шаклларни бир-бирига бўлган муносабатларини яхлит, умумий холда кўриш учун мўлжалланган кичик ўлчамларда бажарилган эскизлар туркимиға айтилади. |
| Достон | Поема | Remembrance | форс тилидан олинган бўлиб, “қисса”, “хикоя”, “тарих” маъноларини ифодалайди. Ўзбек бадиий адабиётида достонлар яратилиш усулига кўра икки хил бўлади. Биринчи тури ёзма адабиёт вакиллари томонидан ҳар бир банди маснавий – икки мисрадан иборат, фақат шеърий шаклда яратилади. Иккинчи тури достонлар оғзаки ижод маҳсули сифатида фольклор анъаналарга бўйсунган холда яратилади. |
| Стилизация | Стилизация | Stylization | муқаллид нарсаларнинг шакл ва тузилишини соддалаштириш ёки мураккаблаштириш. |


FOYDALANILGANADABIYOTLARRO'YXATI

1. G'ulomov M. "Boshlang'ich sinf o'quvchilarini husnixatga o'rgatish" T. 1970
2. G'ulomov M. "Chiroyli yozuvni shakllantirish" T. 1992
3. Hasan Qudratullayev, filologiya fanlari doktori, professor «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasining
4. "www.Ziyo.net.uz Internet saytidan
5. O'zbekiston milliy ensiklopediyasidan 2013 yil 5 yanvargi nashri
6. "Sharq xattotlik va miniatyura san'atidan namunalar" VII –XXI asrlar (musannif bisotidan)
7. Sharq miniatyurasi va adabiyoti. Inson obrazining tadriji. E.A.Polyakova, Z.I.Rahimova, Toshkent 1987 G'ofur G'ulom nomidagi „Adabiyot va san'at” nashriyoti.
8. Alisher Navoiy asarlariga ishlangan rasimlar XV-XIX asrlar. Hamid Sulaymon, Fozila Sulaymon. Toshkent 1982 „Fan” nashriyoti.
9. S.F.Abdurasulov. Tasviriy san'at va uni o'qitish metodikasi. T., “ILM – ZIYO”, 2011
10. P. P. Shabaratzov. Miniatyura. T. “Iqtisod -moliya” nashriyoti. 2011
11. G'. M. Abduraxmonov. Tasviriy san'at kompozisiyasi. T., 1996
12. D. A. Nazilov. Kompozisiya asoslari. T., “Yangi asr avlodii”, 2009
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16-avgustdagি PQ 3219 sonli “O'zbekiston Badiiy akademiyasi faoliyatini rivojlantirish va yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarori

Internet saytlari.

1. www.Wikipedia.org
2. www.KH-davron.uz
3. www.Muloqot.uz

ILOVALAR.



1 -rasm



2-rasm



3-rasm



4-rasm




5-rasm



6-rasm

7-rasm






8-rasm



9-rasm




10-rasm



11-rasm



12-rasm



13-rasm




14-rasm



15-rasm



16-rasm



17-18-rasm



19-rasm

22-rasm



20-rasm



21-rasm



22-rasm



23--rasm